

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

AXTAMOVA YODGORA ASHRAFOVNA

(4 o'zb 03)

**GAPDA KESIM O'RNIDA KELGAN KVALIFIKATIV SINTAKSEMALAR
TIPOLOGIYASI**


(ingliz va o'zbek tillari misolida)

Mutaxassislik-5220100

Ilmiy rahbar: o'qituvchi S.E.To'ychiyev

Ilmiy maslahatchi : f.f.n. O.R.Isarov

Bitiruv malakaviy ish
Ingliz tili o'qitish metodikasi va amaliyoti
kafedrasi yig'ilishida muhokama qilinib,
himoyaga tavsiya etildi.
Bayonnoma №18, 20 may, 2014 yil



Kafedra mudiri: f.f.n.Sh.S.Ashurov

Samarqand-2014

MUNDARIJA

K I R I SH.....	3
BOB I. Tilshunoslikda gap bo'laklari va sintaktik aloqalar masalalari.....	6
1.1. Tilshunoslikda gap bo'laklari talqini.....	7
1.2. Tilshunoslikda sintaktik aloqalar masalasi.....	17
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	20
BOB II. Gapda kesim o'rnida kelgan kvalifikativ sintaksemalar tipologiyasi.....	22
2.1. Ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish.....	29
2.2. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan kvalifikativ sintaksemalar tipologiyasi.....	24
2.3. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksemalar tipologiyasi.....	25
2.4. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan kvalitativ sintaksemalar tipologiyasi.....	28
2.5. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan kvantativ sintaksemalar tipologiyasi.....	33
2.6. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan aktiv sintaksemalar tipologiyasi.....	37
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	43
Xulosa.....	45
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	47
Ishda foydalanilgan belgilar izohi.....	52

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarida mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"¹.

Mavzuning dolzarbligi. Tadqiqotning dolzarbligi qardosh bo'lmagan tillarni, jumladan ingliz va o'zbek tillarini qiyosiy tavsiflashdan iborat bo'lib, hozirgi zamon tilshunosligida muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari, mavzuning dolzarbligi ingliz va o'zbek tillarida kesim (NP2-yadro predikativlik II) o'rnida kelgan elementlar asosida gap bo'laklarining kompleks tahlil qilinishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik va semantik jihatdan qiyoslanishi tadqiqot obyekti tashkil etadi. Tadqiqotning predmeti esa sodda gaplar tarkibida ishtirok etgan birliklardan kesim vazifasidagi elementlarning tipologik jihatdan qiyosiy tavsiflanishini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi talqinidan iborat bo'lib, shu maqsad yo'lida quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratildi:

- qardosh bo'lmagan tillar (ingliz va o'zbek tillari) tizimida kesim o'rnida kelgan elementlarni morfologik jihatdan, ya'ni ifodalanish usuliga ko'ra tasniflash;
- ingliz va o'zbek tillarida differensial sintaktik birliklarning izomorflik va allomorflik xususiyatlarini belgilash;

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 8.

- gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini tipologik jihatdan o'rganish;

- har ikkala tilda kesim o'rnida kelgan elementlarni kategorial hamda nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilari asosida tasniflash;

- har ikkala tilda aniqlangan sintaksema variantlarini inventarizasiya qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotning metodologik asosini milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari, Prezident I. A. Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining til, ta'lim va fanni rivojlantirish borasidagi ko'rsatma va qarorlari tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida asosan, qiyosiy-tipologik, distribusiya, modellashtirish, transformasiya, ya'ni eksperiment metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda ingliz va o'zbek tillarida gap strukturasidagi elementar sintaktik birliklar munosabati yaxlit tizim sifatida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Shu asosda har bir sintaktik birlikning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlab, ularni tipologik jihatdan qiyoslashga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishdagi tahlil natijalari asosida nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika darsliklari yaratishda va ushbu fanlardan dars jarayonida foydalanish mumkin.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- qardosh bo'lmagan tillar tizimini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq qilishda gapda kesim o'rnida kelgan elementlarning asos qilib olinishi sintaktik qatlamdagi birliklarning struktur-semantik tahliliga keng yo'l ochib beradi;

- gapda kesim vazifasida kelgan birliklarning boshqa elementlar bilan bog'lanadigan sintaktik aloqalariga ko'ra, ularning sintaktik qatlamdagi semantik maydoni yoritib beriladi;

- kesim vazifasidagi sintaktik birliklar har ikkala tilda shakliy va mazmuniy jihatlari hamda izomorflik va allomorflik xususiyatlariga ko'ra oydinlashtirilib, aniqlangan sintaksemaning har biri sintaktik sathda tipologik kategoriya sifatida

gapning turli o'rnida kelishidan qat'iy nazar, alohida til materiali sifatida o'rganilishi mumkinligi ta'kidlab o'tiladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi qo'yilgan vazifalarning ketma-ket izchilligiga asoslanib, kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shuningdek, qo'llanilgan shartli belgilarning izohidan iborat.

BOB I

TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARI VA SINTAKTIK ALOQALAR MASALALARI

Gap nutq birligi sanaladi. Shunday bo'lgach, uning sintaktik tahlili nutq lingvistikasi qonun – qoidalari doirasida amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Nutq lingvistikasi qonun-qoidalari esa endigina ilmiy asoslana boshladi. Ana shu bois ular orqali sintaktik tahlilda o'z aksini topishi lozim bo'lgan gapning struktur butunligini tashkil etayotgan bevosita ishtirokchi elementlarning tildan nutqqa ko'chirilishi va bu jarayonda ularning qay tarzda sintaktik faollik olishi, sintagmatik zanjirning voqelanishidagi ulushi masalalarini izohlab bo'lmaydi.

Gap bo'laklari nazariyasiga asoslanuvchi an'anaviy sintaktik tahlilning zaif tomonlari haqida ba'zi tilshunoslar o'z fikr va mulohazalarini bildirishgan bo'lishiga qaramay, bu sohada hali keskin o'zgarishlar sodir etilganicha yo'q. Rus tilshunosi Z.D.Popova mazkur masala bobida quyidagilarni yozadi: «Традиционное учение о членах предложения содержало в себе такие противоречия, которые постоянно побуждали синтаксистов к его пересмотру»¹.

Z.D. Popova gap bo'laklari tushunchasiga yangicha yondashib, ularning gapda bajaradigan vazifalarini birmuncha mukammalroq va aniqroq izohlashga harakat qiladi. Olima G.A.Zolotova qo'llagan “sub'yektiv” va “predikativ” terminlaridan foydalanib, gap bo'laklarini ularning vazifalariga ko'ra quyidagicha tasnif etadi:

1. Gapning struktur sxemasiga kiruvchi gap bo'laklari. Bunga subyektivlar (ega, dativ subyektiv, genitiv subyektiv, instrumentativ subyekt va h.k.lar); predikativlar (kesim, predikativ ravish, infinitiv va h.k.) kiradi.

2. Gapning struktur sxemasiga kirmaydigan gap bo'laklari. Bu bo'laklar, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi: 1. Gapning pozision sxemasiga kiruvchi ikkinchi

¹ Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 69.

darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, hol). 2. Gapning pozision sxemasiga kirmaydigan ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi)¹.

Tilshunoslarning gapning ikkinchi darajali bo'laklari haqida ham bildirishayotgan salbiy mulohazalarini kuzatamiz. Bu xususda gapirganda akademik V. V. Vinogradov gapning ikkinchi darajali bo'laklari masalasini tubdan qayta ko'rib chiqish kerakligini, ular grammatik tamoyillarga izchil asoslanmaganligi tufayli gap strukturasida sodir bo'ladigan jonli sintaktik aloqalarni mutlaqo sun'iy ifodalashini alohida ta'kidlagan edi².

Bunday fikr Ya. I. Rosloves tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. Uning «Вопросы языкознания» jurnalida e'lon qilingan maqolasida quyidagilarni o'qiymiz: «Традиционное учение о второстепенных членах предложения... переживает своеобразный и противоречивый кризис»³. Olim masalaning bunday holatga kelib qolishining asosiy sababi mantiqiy va sintaktik kategoriyalarning, gap va hukmning, gap bo'laklari va mantiqiy hukm bo'laklarining bir-biridan keskin farqlanmayotganligida deb biladi.

Tilshunoslik adabiyotlarida gap bo'laklari va ularning talabga javob bera olmayotgani haqida aytilgan fikr va mulohazalar anchagina bo'lishiga qaramay, hozirgacha bu xususda sof lingvistik qonun-qoidalarga izchil asoslanuvchi biror bir konkret taklif kun tartibiga qo'yilgani yo'q. Bizningcha, buning amalga oshishi nutq lingvistikasining to'liq ilmiy asoslanishi bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, gap nutq birligidir va shu bois uning sintaktik tahlili muammolarini ham nutqdan ayri holda hal etish mushkuldir.

1.1. Tilshunoslikda gap bo'laklari talqini

Ma'lumki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o'rganishda gaplar struktura jihatdan kommunikativ yo'nalishiga hamda tarkibiga ko'ra tasniflanadi. Ammo gapdagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri gap tarkibida

¹ Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 72.

² Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – С. 282.

³ Рословец Я.И. О второстепенных членах предложения и их синтаксических функциях // Вопросы языкознания. № 3, 1976. – С. 74.

biror grammatik vazifani bajaradi. Gap strukturasini tahlil qilishda undagi gap bo'laklari sintaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar gap tarkibidagi elementlarning o'zaro munosabatini, bu munosabatning harakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga ajralishini, so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi. Har bir gap ma'lum ob'yektiv mazmun va substant material, ya'ni so'zlar yordamida ifodalanadi. Gapning substantional tomoni uning sintaktik strukturasini hisoblanadi. Sintaktik strukturani tashkil etgan elementlar tilshunoslikda turlicha, ya'ni "gap bo'laklari", "sintaksema"¹, "sintaktik shakl" kabi² nomlanib kelinmoqda. Sintaktik elementlarni, shuningdek, aktant nomi bilan ham atashadi. Avvalo shuni aytish lozimki, «aktant» termini tilshunoslikka taniqli fransuz olimi Lyus'en Ten'yer tomonidan kiritilgan edi. U aktant deganda, fe'l bajarayotgan ish-harakati ijrosida faol qatnashayotgan leksik birliklarni tushunadi. Aktantlar, boshqacha aytganda, harakat ijrochisi va uning iste'molchilaridir. Ularning ishtirokisiz fe'lning sintaktik vazifalari xususida hamda uning jumla tarkibida voqeyelanayotgan faolligi xususida mukammal ma'lumotga ega bo'lish qiyin.

Aktant gap sathida ot turkumidagi so'z yoki mazkur so'zning o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan olmosh, otlashgan biror so'z orqali ifodalanadi.

L.Ten'yer aktantlarni harakat ijrosidagi darajasiga qarab uch turga bo'lib talqin etadi va ularni 1-darajali, 2- darajali, 3- darajali aktantlar deb nomlaydi³. L.Ten'yerning aktantlar nazariyasi mantiq iskanjasida bo'lgan tilshunoslikni sezilarli darajada undan tozalash uchun xizmat qilishi shubhasizdir, zotan, mazkur nazariyada an'anaviy sintaktik tahlilda qo'llaniladigan ega, kesim, aniqlovchi va h.k. tushunchalaridan foydalanilmaydi.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik talqini xususida so'z yuritilganda gapni bo'laklarga ajratib tahlil qilish tushuniladi. Gap bo'laklarining

¹ Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). - М.: Наука, 1964. – С.23.

² Золотова Г.А. К вопросу о способах выражения членов предложения // Русский язык в школе. - М., 1958.-№ 1. – С.23-28.

³ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 117.

bunday tavsifi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar sintaktik tahlil jarayonida yetakchi rol o'ynadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, til birliklariga, shu jumladan, sintaksemalarga muayyan ichki strukturaga ega bo'lgan murakkab sistema sifatida yondashuv, tilning boshqa sathlarida bo'lgani kabi sintaktik sathda ham turli yangicha tahlil mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi¹.

Xususan, A. Nurmonovning fikricha, sistem tilshunoslikda gapning struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozitsiya, propozitiv struktura elementlari esa ob'yektiv reallik strukturasiga nisbatan izomorflik, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi), modal struktura ob'yektiv va sub'yektiv munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi². Darhaqiqat, har bir strukturaning o'ziga xos elementlari mavjud bo'lib, ular faqat shu struktura darajasidagina o'zaro assotsiativ va sintagmatik aloqada bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, an'anaviy tilshunoslikdagi ayrim muammolarning sababi oydinlashadi. Xususan, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik tahlili uni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish bilan chegaralanadi. Bunday tahlil gapning shakliy tomonini tekshirish hisoblanadi. Mantiq tilshunoslari esa gap elementlarini ega o'rnida «sub'yekt», kesim o'rnida «predikat» kabi lisoniy atamalar yordamida tahlil qiladi. Lekin bu borada ega bilan sub'yekt, kesim bilan predikat o'rtasidagi o'xshashlik tomonlar hamda ularning bir-biridan farq qilish muammosi anchagina bahslarga yo'l ochib berishi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, rus mantiqiy tilshunosi F.I. Buslayev, «...tilda egaga bosh kelishikda kelgan ot mos keladi... ba'zan ega va kesim boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi, lekin har holda egani anglatgan so'z ot ma'nosini, kesimni anglatgan so'z esa fe'l ma'nosini oladi»³, degan fikrni bildiradi. Shunday ekan, gapda ega har doim bosh kelishikda kelib, faqat sub'yektni ifodalasa, kesim fe'l bilan ifodalanib, predikat bo'lib kelsa va ularda bir xillik mavjud bo'lsa, bosh bo'laklarni har xil atamalar bilan atashga

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.; Храковский В.С. Концепции членов предложения в русском языкознании XIX века // Грамматические концепции в языкознании XIX века. - Л., 1985. — С.124.

² Нурмонов А., Махмудов Н. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992. - Б.85-89.; Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1988. - №5. — Б. 22-23.

³ Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. - М.: Наука, 1968.-С. 8.

nima majbur qiladi, degan savol tug'iladi. Mantiqda implikatsiya munosabatlari ekstensional, intensionallar va ularning orasidagi bog'liqlik orqali, grammatikada esa grammatik kategoriyalar, gapdagi fe'lli va otli qurilmalarning bog'liqligi bilan aniqlanadi¹.

Gapning sintaktik qatlami tahlil qilinganda gapda ega yoki kesimning muhim ahamiyatga ega ekanligi ham ayrim bahslarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. A. G'ulomov va M. Asqarovalar bu haqda shunday deydi: «Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil etadi: ular gap konstruksiyasining asosidir, markazidir-gapdagi ikki uyushtiruvchi markazdir. Lekin bosh bo'laklarning yolg'iz o'zi ham mustaqil gapni tashkil qiladi, biroq ba'zi o'rinlarda ularning o'zidan to'liq fikr ifodalanmaydi», deb yozadilar. Bu olimlar egani hokim tarkibning grammatik markazi, shuningdek, uni tobe tarkibdagi bosh bo'lakka - kesimga ham hokimdir, deb ta'kidlashadi². Kesim haqidagi bunday talqin 1980 yillargacha, ya'ni fanimizga sistem-struktur sintaktik tadqiqotlar kirib kelgunga qadar davom etib keldi. Ammo H. Ne'matov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, M. Abzalova kabi o'zbek hamda boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida kesimning mavqeyi yangicha baholandi - kesim gap qurilishidagi mutloq hokim bo'lak, gap markazi sifatida talqin etildi"³.

Umuman olganda, kesim bosh bo'laklarning biri sifatida barcha tillarda universal harakterga ega bo'lishiga qaramasdan, u ifodalanishiga ko'ra tasniflanganda tilshunoslarning kesim haqidagi fikri turli-tumanligining guvohi bo'lamiz. Masalan, ingliz tili nazariy grammatikalaridan birida kesim quyidagicha tasniflanadi: sodda fe'l kesim, tarkibli fe'l kesim. Tarkibli kesim ikki ko'rinishga ega: 1) tarkibli ot-kesim; 2) tarkibli fe'l-kesim⁴. Ularning ifodalanishi haqida fikr yuritilganda, sodda fe'l-kesim nafaqat yaxlit, yagona fe'l yordamida,

¹ Tomic O.M. Generative syntax in theory and practice. — Skopje: "Kiril i Mefodij" University, 1998. - P.119-120.

² Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - Б.72-77.; Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык (теоретический курс грамматики). - М.: Лит. на иностр. языке, 1956. - С.244.

³ Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. -Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др. - Вступ. статья и общ. ред. В.Г. Гака. - М.: Прогресс, 1988. - 656 с. ; Ne'matov H., Mahmudov N., Sayfullaeva R., G'ulomov A., Abduraimova M. Ona till. 8-sinf uchun darslik. - Toshkent, 2002. - B.37.

⁴ Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык (теоретический курс грамматики). - М.: Лит. на иностр. языке, 1956. - С.246.

balki fe'ning murakkab shakli orqali ham ifodalanishi qayd etilgan. Bundan tashqari, tarkibli ot-kesim bog'lama fe'l hamda predikatni ifodalovchi ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, holatni ifodalovchi so'zlar, infinitiv, gerundiy yoki ravish orqali ifodalanadi, deb ta'kidlanadi. V.D. Arakinning fikricha, kesim bir komponentli va ikki komponentli kesimlarga bo'linib, bir komponentli kesim ikki turga ajratiladi: a) ega bilan moslashadigan; b) ega bilan moslashmaydigan. Ikki komponentli kesimlar ham ikki turga ajratiladi: a) ot kesim; b) murakkab kesim¹. Kesimning bunday tasniflanishi B.A. Il'ishning fikrini ham tasdiqlaydi, ya'ni u ingliz tili nazariy grammatikasida kesimni ikki katta guruhga bo'ladi: fe'l kesim, ot kesim, shuningdek, ularning har birini yana ikkiga bo'ladi: sodda fe'l-kesim, qo'shma fe'l-kesim; sodda ot-kesim, qo'shma ot-kesim².

Ingliz tili amaliy grammatikasida kesim quyidagicha tasniflanadi: 1) Sodda kesim (Simple predicate); 2) Qo'shma kesim (The compound predicate)³. Birinchi kesim turi fe'ning shaxsli shakli bilan ifodalanadi, ammo uning tarkibi frazeologik birliklar yordamida ifodalanganini hisobga olib, u frazeologik kesim deb nomlanadi. Masalan: *I'll get a divorce* (Th.Dr.p.4).

Kesimning ikkinchi turi ifodalanishiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'ladi, birinchi qismi fe'ning shaxsli shakli bilan ifodalansa, ikkinchi qismi esa ot, olmosh, sifat, sifatdosh, gerundiy va infinitiv yordamida ifodalanadi. Qo'shma kesimning o'zi ikki guruhga bo'linadi: 1) qo'shma ot-kesim; 2) qo'shma fe'l kesim. Qo'shma ot-kesim bog'lama fe'l va boshqa so'z turkumlari yordamida ifodalanadi. Bu borada shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tilida juda ko'p fe'llar borki, ular gapda bog'lama, mustaqil va yordamchi fe'llar vazifasida ishlatiladi. Bunday hol ingliz tilini o'rganuvchilar uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. *Everyone was the king* (R.P.Warren, p.239). Qo'shma fe'l-kesim ifodalanish usuliga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) Qo'shma modal fe'l-kesim; 2) qo'shma aspekt fe'l-kesim. Qo'shma modal fe'l-kesim asosan, modal fe'llar yoki ularning

¹ Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - Л.: Просвещение, 1979. - С.189-190

² Пыш В.А. The structure of Modern English. - Л.: Просвещение, 1971. - С. 207-208.

³ Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л. и др. Грамматика английского языка. -Л.: Просвещение, 1973. - С.230.

muqobillari hamda fe'lining infinitiv shaklini qo'shish bilan ifodalanadi: *We shall have to exert ourselves* (J. Galsworthy, p.12). Kesimning bu turi haqida ham ayrim qiyinchiliklarga duch kelamiz. Masalan, gap tarkibida *to hope, to expect, to intend, to attempt, to try, to want* kabi fe'llarni infinitiv yoki gerundiy bilan birikib kelsa ham qo'shma modal fe'l-kesim deyish mumkin, lekin bu uni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Masalan, *I don't want to take it to anybody* (M. Wilson, p.313) gapiga e'tibor qilaylik. Bu gapga shunday savol qo'yish mumkin: *What don't you want?* Yana, ikkinchi bir gapni olaylik: *He tried to open the tin with a pocket knife*. Bu gapga esa *Why did he try?* deb, savol qo'yish mumkin. Mazkur gaplarning birinchisiga qo'yilgan savol to'ldiruvchiga mos bo'lsa, ikkinchisidagi esa, maqsad holiga mos keladi. Yoki ba'zi darsliklarda qayd etilganidek, gapda kesim o'rnida *to be obliged, to be bound, to be anxious, to be capable* kabi birikmalar infinitiv bilan kelsa ham qo'shma modal fe'l-kesim deb atalishi mumkin.

Qo'shma aspekt fe'l-kesim haqida to'xtalsak, u gapda kesim o'rnida *to begin, to start, to continue, to stop* kabi fazali fe'llar bilan infinitiv yoki gerundiyning birikib kelishi yordamida ifodalanadi. *He began to speak; He began speaking*. Har ikkala gapga bir xil savol, ya'ni to'ldiruvchiga beriladigan savol mos keladi, *What did he begin?* E'tibor berib qaralsa, bu kesim turini alohida ajratishda fe'llarning leksik ma'nosi asosiy o'rinni egallaydi. Boshqalarida esa ifoda planiga qarab ajratilgani yaqqol ko'rinib turibdi. Yuqorida qayd etilganlardan ma'lum bo'ladiki, aspekt kategoriyasi qaysi qatlamda, ya'ni morfologik, sintaktik yoki leksik qatlamda o'rganilishidan qat'iy nazar izohtalabdir. Aspekt kategoriyasi L.S. Barxudarovning fikricha, fe'ning zamon shakllariga qarab o'rganilib davomsizlik (non—continuous aspect) va davomlilik (continuous aspect) aspektlariga ajratiladi, ya'ni tilning morfologik qatlamida o'rganiladi¹.

Grammatik materiallarni tadqiq etishda distributiv, transformatsiya, bevosita

¹ Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1975. - С.113-116.

ishtirokchilarga ajratish tahlil usullari asosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilingan bo'lsa-da¹, biz o'z tadqiqotimizda komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish usulini qo'llashni afzal ko'rdik. An'anaviy grammatikada gapni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilishda o'ziga xos juz'iy kamchiliklar mavjud. Chunki an'anaviy tilshunoslikda sintaktik birliklarga ajratiladigan bo'laklar ham gapning bir bo'lagi deb qaraladi. Bu esa gap bo'laklarini elementar sintaktik birliklarga ajratish imkonini bermaydi. Undan tashqari, gap tahlilida sintaktik elementlarning semantikasi hisobga olinmaydi. Ammo ushbu ishda tillar tizimida gapda kesim o'rnida kelgan sintaktik birliklarga e'tibor qaratgan holda ularni sintaktik jihatdan o'rganish bilan cheklandik. Ushbu muammoni tadqiq etishda A. M. Muxin va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan lisoniy metoddan² foydalanish bizning nazarimizda yuqorida qayd etilgan usullarga xos ayrim kamchilik va nuqsonlarni to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tahlil usuli boshqalaridan farqli ravishda ikki bosqichda amalga oshiriladi. Xususan, boshlangich bosqichda gapdagi elementlar komponentlarga ajratib tahlil qilinadi hamda ushbu bosqichda berilgan elementlarning o'zaro sintaktik aloqalari aniqlanib, bir-biridan farqlanish usullari yunksion va komponent modellarda ifoda etiladi.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davri bosqichida til tizimi birliklarining qay tarzda nutqqa ko'chirilishi va jumlaning nutqiy zanjirda voqelanishi, sintaktik strukturalarning nutqiy faollashuvi, ularning semantik va sintaktik munosabatlari masalasiga doir muammolar tilshunos olimlarimizdan o'z tadqiqini kutmoqda. Chunki hozirgacha tilning sistema ekanligi to'g'risida diqqatga sazovor tadqiqot ishlari qilingan bo'lsa ham, sistema belgilarining nutqqa ko'chirilishi, boshqacha aytganda, ularning nutqda real ishlatilishi masalasiga kam e'tibor berildi.

Mazkur masalalar ayniqsa nutq lingvistikasi ilmiy asoslanayotgan bugungi kunda yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Zotan, til tizimidagi har bir belgining

¹ Wells R.S. Immediate Constituents // Language. -- Baltimore, 1989. - № 23. - № 2. - P. 88.; Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш. Самарқанд: СамДУ, 1989. - Б.8-23.

² Мухин А.М. Синтаксический анализ и проблемы уровней языка. - Л.: Наука, 1980.-304 с.

paradigmatik qator doirasidan sintagmatik qator doirasiga o'tishi, virtuallik belgilarini tark etib, aktual holat kasb etishi va shu yo'sinda gapning sintaktik shakllanishi nutq lingvistikasining g'oyat muhim masalalarini taqozo etadi.

Ravshanki, gapning asosiy bevosita ishtirokchi elementlari so'zlar hisoblanadi. Biroq gap sathida so'zlarning o'zaro bog'lanishi ularning shunchaki ketma-ket kelishidan iborat bo'lmay, bunda tilning semantik, sintaktik va hatto fonologik qurshov (distributsiya) qoidalari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayonda gap shaklini tashkil etayotgan har bir bevosita ishtirokchi element uning ajralmas bir bo'lagi vazifasini olib, ma'lum bir funksional qiymat kasb etadi. Chunki gap tarkibida faollashayotgan har bir element orqali ma'lum bir kommunikativ, semantik yoxud pragmatik maqsad ko'zda tutiladi. Mazkur maqsad ifodasi esa turlicha ro'y beradi. Masalan, gapda tilning ba'zi birliklari katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil holatda faollashib, ega yoki kesim vazifasini bajarsa, ba'zilariga boshqalarning yordamida aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifalari yuklanadi, ayrimlari esa muxtor tarzda harakatga keladi.

Tilimizda shunday elementlar ham mavjudki, ular biror sintaktik vazifani bajarmay so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga, yoxud o'sha fikrning ifoda etilishi usuliga bo'lgan munosabatni bildiradi. Bunday munosabat tasdiq, umid, ishonch, gumon, taxmin, shodlik, taajjub va hokazo ma'nolarni anglatib, bayon qilinayotgan fikr tartibini, mazkur fikrning oldingi mulohaza bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bular modal so'zlar bo'lib, gapning biror bo'lagiga yoki butun gapga taalluqli holda kirish so'z mavqeida kelishi bilan sintaktik va nihoyat, fikrga aniqlik kiritishi, tasdiq, taxmin, tartib turlicha emotsional munosabatlarni ifodalashi bilan semantik belgilarga ega bo'la oladi¹. Kirish so'z va kirish birikmalar gapning umumiy strukturasini kengaytirib, uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishiga qaramay, an'anaviy grammatikalarda gap bo'laklari qatoriga kiritilmaydi. Bu esa gapni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarning birini bosh bo'lak, ikkinchisini ikkinchi darajali bo'lak deb, boshqasini nomsiz qoldirib, hech qanday bo'lak qatoriga qo'shmaslik masala mohiyatini nihoyatda

¹ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент : Фан, 1976. — 560 б.

chigallashtirib yubormoqda. Bunday vaziyatga ko'pchilik olimlarimiz ko'nikib ketishgan bo'lsalar-da, so'nggi yillarda ba'zi tilshunoslar bu haqda o'zlarining e'tirozli fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, A.R.Sayfullayev o'zining ilmiy izlanishlarida modal so'z va modal birikmalar gapning uchinchi darajali bo'laklari ekanligini va ular semantik vazifalaridan tashqari sintaktik vazifa bajarishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi¹. A. R. Sayfullayevning fikricha, kirish so'z va kirish birikmalar ko'pincha gapning kesimi vazifasida kelgan so'z bilan sintaktik munosabatda bo'lib, ular bilan boshqaruv, bitishuv usullari orqali bog'lanadi². Lekin shunga qaramay, bu o'rinda ham muammo yechimi to'liq hal qilinganligini e'tirof etishimiz qiyin ko'rinadi. Chunki gap bo'laklari nazariyasi gap muchalarining formal-sintaktik funksiyalarini atroflicha yoritmayapti. Bizningcha, buning asosiy sababi gap bo'laklari tushunchasining mantiqiy xarakteri bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, gap bo'laklari tushunchasi so'f lingvistik maqsadlarni ko'zda tutmagani bois, u orqali gap komponentlarining tildan nutqqa ko'chirilishi va bu jarayonda qanday sintaktik vazifalar bajarishi masalasi talqinini berib bo'lmayapti. Albatta, vaziyatning bunday tus olishi tilshunos olimlarimizni tashvishlantirmoqda va shu bois gap komponentlari sintaktik tahlilining yangi-yangi usullari taklif ham etilmoqda. Ana shunday tahlil usullaridan biri Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri A.Martining funksional tahlil nazariyasidir. Mazkur nazariyada nutqning eng kichik birligi «monema» tushunchasi ilmiy iste'molga kiritildi. Bu struktur-funksional tahlil uchun eng qulay atama bo'lib, uning yordamida gap elementlarining funksional tomonlarini va sintaktik qurilmaning shakllanishida har bir elementning paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga o'tishi masalalarini mukammal talqin etish mumkin. A.Martine monemalarni uchga bo'ladi: avtonom, funksional va qaram monemalar³. Avtonom monema gap tarkibida muxtor holda qo'llanilib, tildan nutqqa biror bir morfologik vositaning

¹ Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984.

² Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке // Автореф. докт. дисс. – Ташкент, 2001.

³ Martinet A. La linguistique synchronique. –Paris, 1968.

yordamisiz ko'cha oladi. Nutqda uning faolligi boshqa monemalar bilan bog'lanmaydi. Boshqacha aytganda, muxtor monema o'zining sintaktik, semantik va funksional faolligi jihatidan boshqa biror monemaga tobe bo'lmaydi.

Boshqa gap elementlariga qaraganda muxtor monemaning sintaktik o'rnini erkin bo'lganligi sababli aksariyat hollarda uning o'rnini o'zgartirish yoki gap tarkibidan tushirib qoldirish ham mumkin. Garchi u tushirilib qoldirilsa ham, gapning asosiy mazmuniga putur yetmaydi. Faqat uning yuzaki strukturasi qisqarishi va gapda ifodalanayotgan ta'kidlash, gumon, aniqlik, inkor, shodlik, shubha va hokazo ma'nolariga ziyon yetishi mumkin. Ammo ayrim kirish so'z va kirish iboralarning o'rnini ularning distributiv xarakteriga ko'ra muqim bo'ladi. Bu, albatta, har bir tilning o'z ichki qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

Muxtor monemalar o'zbek tilida ko'p hollarda kirish so'z, kirish birikmalar, payt ravishlari orqali ifodalanadi va bu bilan boshqa monemalardan farqlanib turadi¹. Funksional monema gapning biror elementini tildan nutqqa ko'chirishi va unga sintaktik funksiya berishi bilan xarakterlanadi². Funksional monemalar boshqa monemalarga faollik baxsh etib, ularni paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga qarab yetaklaydi, virtual holatdan aktual holatga olib keladi, jonlantiradi. Natijada, funksional monemalar orqali faollashib, nutqiy vazifa olayotgan monemalar ularga tobe bo'lib qoladi va qaram monemalar deb yuritiladi. Nutq muhiti va so'zlovchining istak-xohishi bilan til birliklari nutqqa ko'chayotganda belgili yoxud belgisiz ifodalanishi mumkin. Sodda gap komponentlarining funksional tahlili affikslar, ko'makchi va ba'zi so'z shakllari bilan bog'liq bo'lsa, qo'shma gap komponentlarining funksional tahlili ularni o'zaro bog'lovchi vosita bilan uzviy aloqadordir.

Yuqoridagilardan tashqari, ilovali va parsellyativ qurilmalar, kirish so'z, kirish birikmalar ham tom ma'noda sintaktik muammolar sifatida o'rganilgani yo'q³. Ammo ular gapning bevosita ishtirokchi elementlaridir. Shunga ko'ra,

¹ К.Турниёзова. Гапнинг учинчи даражали бўлаклари ва «монема» тушунчаси ҳақида баъзи мулоҳазалар //Хорижий филология. № 2, 2007. Б.81-85.

² Мартине А. Основы общей лингвистики //Новое в лингвистике, вып. 3, - М., 1963.

³ Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. - Самарканд:СамДЧТИ, 1998. - Б.4.

A. Sayfullayev kirish so'z, kirish birikma hamda undalmalarni gapning uchinchi darajali bo'laklari deb atagan edi¹. Biz quyida shu kabi masalalarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish orqali hal qilishga harakat qilamiz.

1.2. Tilshunoslikda sintaktik aloqalar masalasi

An'anaviy grammatikalarda berilishicha, sintaktik aloqalar borasida barcha tillar nazariy grammatikalariga qaraganimizda moslashuv, bitishuv va boshqaruv kabi atamalar qo'llaniladi, ammo ularni sintaktik sathda gap qurilmasida tahlil qilganda, ular sintaktik aloqalar vazifasini bajarmaydi. Masalan:

I read a book.

I come home.

Har ikkala jumla sintaktik jihatdan bir xil bo'lishiga qaramasdan, ular o'rtasida farq bor. Birinchi gapda *read a book* elementlari o'rtasida boshqaruv bor, ya'ni *read* fe'li o'timli bo'lganligi uchun. Ikkinchi gapda esa *come home* elementlari o'rtasida hech qanaqa sintaktik aloqa borligi aytilmagan, buning asosiy sababi til sathlarining bir-biri bilan aralashtirib yuborilishidir. Shuning uchun ham sintaktik sathda gap qurilmasidagi elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yangilari ishlab chiqildi. Undan tashqari formal jihatdan quyidagi ikki usulda gap elementlarining bog'lanishi ham qayd etilgan.

1) teng bog'lanish; 2) tobe bog'lanish;

Teng bog'lanish o'z nomidan ham ma'lumki, gap tarkibidagi so'zlar bir-biri bilan teng bog'lanadilar. Tobe bog'lanishda esa biri ikkinchisiga tobe bo'ladi. Undagi tobe va hokim so'zlar: 1) moslashuv; 2) boshqaruv; 3) bitishuv usullari yordamida so'z birikmasi hosil qiladi.

Moslashuv – tobe so'z va hokim so'zlarning shaxs-sonda mosligi: M: *mening kitobim, sening kitobing.*

Boshqaruv-tobe so'zning hokim so'z talab qilgan shaklini olishidir:

A) Kelishikli boshqaruv(-ni, -ga, -da, -dan). M: *kitobda bor, uydan oldim.*

¹ Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984. – С. 70-118.

B) Ko'makchili boshqaruv (ko'makchi so'zlar yordamida). M: *sayr haqida gaplashmoq*.

Bitishuv-tobe so'zning hokim so'z bilan faqat ma'no jihatidan birikishi:
M: *kata tanaffus, chiroyli qiz*.

Hozirgi zamon tilshunosligida gaplarni sintaktik qatlamda tahlil qilish borasida gap bo'laklariga, ya'ni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib o'rganish bilan chegaralanadi. Zeroki, gaplarning sintaktik birliklarini, semantik maydonini, ularning differensial sintaktik hamda differensial sintaktik-semantik belgilarni aniqlash va bunda ma'lum lisoniy metodlarga tayanib gaplarni tahlil qilish zamon talabidir.

Prof. A. M. Muxin va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan «komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish» metodi juda samaralidir. Komponentlab tahlil qilish deganda gapda ishtirok etgan sintaktik birliklarni o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlab, yunksion modellar yordamida tasvirlash, ularning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash tushuniladi. Gapdagi elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilari elementlar orasidagi paradigmatic munosabat orqali aniqlanadi.

Komponentlab tahlil qilish gap qurilmasini o'rganishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Gapdagi elementlar o'rtasidagi aloqalar esa yunksion modelda o'z aksini topadi. A.S. Barxudarov va A. Yelmslevlarning aytishicha ikki element o'rtasida quyidagicha uch xil sintaktik aloqa bo'ladi: 1) gapdagi har ikki element bir-biriga tobe bo'lmagan holda (koordinativ); 2) birinchi element ikkinchisiga tobe bo'ladi, lekin ikkinchisi birinchisiga tobe bo'lmaydi (subordinativ); 3) birinchi element ikkinchisiga va ikkinchisi o'z o'rnida birinchisiga tobe bo'ladi (predikativ).

Ma'lumki, an'anaviy grammatikada sintaktik aloqalar deganda bitishuv, moslashuv va boshqaruvlar tushuniladi¹. Ammo bu sintaktik aloqalar gaplarning sintaktik tahlilida ko'zga tashlanmaydi, chunki moslashuv morfologik

¹ Ilyish B.A. The structure of Modern English. - Л: Просвещение, 1971. - С.181-183. Becker Th. Back-formation, Cross-formation and "Bracketing paradoxes" in Paradigmatic Morphology//Yearbook of Morphology. - London: Arnold, 2003.-P. 1-25.

qatlamda qaralsa, bitishuv va boshqaruvlar leksik qatlamda kuzatiladi. Demak, sintaktik aloqalarni aniqlashda til sathlari bir-biri bilan aralashtirib yuborilgan. Shuning uchun ham mazkur ishda sintaktik aloqalar yunksion modellar orqali beriladi, hamda gapda ishtirok etgan sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari komponent modellar yordamida bayon etiladi. Mazkur operatsiyalar, asosan, gapdagi yadro komponentlarni aniqlashda eksperiment metoddan, ya'ni tushirib qoldirish transformatsiyasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Natijada, gapdagi yadro va tobe komponentlar aniqlanib, komponent modellarda sintaktik elementlarning morfologik xususiyatlari ham ko'rgazmali ravishda qayd etiladi. Demak, gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilish sintagmatik yo'nalishda gap birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish usuli yordamida amalga oshiriladi¹. Ushbu tahlilning navbatdagi bosqichida esa, bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklari vazifasidagi sintaktik birliklarning differensial sintaktik-semantik belgilari aniqlanib, ularning variantlari hamda ma'lum sintaktik aloqa asosida o'zaro bog'lanishi ko'rsatib beriladi. Gap tahliliga bunday yondashuvning ijobiy natija berishi ba'zi ishlarda ham o'z isbotini topgan². Tahlilning bunday shakli paradigmatic rejada amalga oshiriladi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda asosan, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan substansiallik (predmet yoki shaxsni ifodalovchi element), protsesuallik (harakat nomi yoki holatni ifodalovchi element) hamda kvalifikativlik (sifat, hajm, son, holat kabilarni ifodalovchi elementlar) kabilarga e'tibor qaratiladi³.

Ushbu kategorial sintaktik-semantik belgilar tahlili asosida nokategorial belgilarni aniqlash imkoniyati ham paydo bo'ladi. Gap tahliliga bunday yondashuv sintaktik qatlamda elementar birliklarning quyidagi xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini beradi: birinchidan, gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning mazmuniy va shakliy xususiyatlarini o'rganish; ikkinchidan, gap bo'laklarini differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilar asosida

¹ Мухин А.М. Структура предложений и их моделей. - Л.: Наука, 1968. - 230 с.

² Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). —Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.

³ Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. - Л.: Наука, 1976. - С.105-106.

tasniflash; uchinchidan, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratishning sintaktik qatlamdagi sintaktik-semantik belgilariga xos sistemali munosabatlarini, shuningdek, har bir sintaksemaning paradigmatic variantlarini aniqlash; to'rtinchidan, modellashtirish va eksperiment-lisoniy tahlil metodlaridan foydalanish. Bu borada shuni qayd qilish joizki, lisoniy birliklarning sistemali tahlili haqida ko'pgina tadqiqotlar o'tkazilganligiga qaramay tilshunoslar aniq bir to'xtamga kelganlaricha yo'q. Chunki tilshunoslar tomonidan sistemali tahlil tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Xususan, E.A.Trofimovanning ta'kidlashicha: «Til tizimi stilistik jihatdan differensiallikka ega bo'lib, stilistik belgilangan konstituyentlar lisoniy birliklarining sistem tasviridir»¹. A.S. Mel'nichukning fikricha, sistemali tahlil tushunchasi elementlarning sistem jihatdan o'zaro bog'liqligi va farqlanganligida namoyon bo'ladi².

Birinchi bobga xulosa

Ingliz tilida harakatni ifodalovchi gap bo'laklarini tadqiq etish, harakatni ifodalovchi gap bo'laklari xususidagi ayrim mulohazalar hamda ularning sistemali munosabatlarini tahlil qilishda foydalaniladigan lisoniy metodlar haqida aytib o'tilgan mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tillar tizimini sintaktik qatlamda tadqiq etishda tilshunoslar o'rtasida yakdillik yo'q, shuningdek, ma'lum lisoniy metodlar asosida tadqiqot o'tkazishda ham aniq va to'liq fikriy mushtaraklik mavjud emas. Jumladan, tilshunoslik uchun zarur hisoblangan gap bo'laklari muammosi xususida mukammal echim topilganicha yo'q.
2. Ingliz tili o'rganilganda zamon, nisbat, tus, egalik kategoriyalari hamda ergash gaplar kabilar qisman o'rganilgan, ya'ni ayrim kamchiliklar mavjud.
3. Gaplarning sintaktik tahliliga tilshunoslar turlicha yondashadilar. Xususan, gap bo'laklariga ajratish tema-rematik nuqtai nazardan, modal struktura

¹ Трофимова Э. А. Приёмы выражения взаимосвязей реплик диалогической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва, 1964. - С.6.

² Мельничук А. С. Понятие системы языка и структуры языка в свете диалектического материализма// Вопросы языкознания. М., 1970. - № 1. - С. 21.

ob'yektiv va sub'yektiv munosabat nuqtai nazaridan yondashuvlar mavjud. Bu esa turli-tuman munozarali fikrlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday holat kesim tavsifida ham uchraydi. Xususan, ayrim grammatik qo'llanmalarga nazar tashlasak, gap bo'laklari savol qo'yish yo'li bilan yoki so'z tartibi yordamida tahlil qilinadi. Bu esa nazarimizda, tilshunoslikda gap bo'laklari tahlilida yangicha lisoniy metodlarga katta ehtiyoj borligidan dalolat beradi. Buning dalili ingliz tilida gap bo'laklarini tasniflashdagi turli-tumanlik misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ingliz tilini olib qaraydigan bo'lsak, kesim sodda fe'l kesim, tarkibli fe'l kesim yoki fe'l kesim, ot kesim, frazeologik kesim, fe'l+ot kesim kabilarga ajratiladi. Demak, hozirgi zamon tilshunosligida kesim turlari va uning tasnifi hanuz tilshunoslar oldida o'z yechimini to'liq topmagan muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

4. Bizning nazarimizda, ushbu muammolar yechimi ingliz tilida gap bo'laklarini o'rganish gap elementlarini komponent va sintaksemalarga ajratib, ularning variantlarini inventarizatsiya qilish, shuningdek, tahlil orqali ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlarini aniqlash orqali ancha oydinlashtiriladi.

BOB II

GAPDA KESIM O'RNIDA KELGAN KVALIFIKATIV SINTAKSEMALAR TIPOLOGIYASI

2.1. Ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish

Kesim semantikasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi olimlar kesimni semantik anglash faqat uning semiotik talqinida namoyon bo'lishini ta'kidlasalar¹, boshqa birlari esa gapdagi birliklarning semantikasi struktur ierarxiya orqali aniqlanishi mumkinligini ko'rsatadi². Bundan tashqari gapdagi har bir elementning semantikasi uning nutqda qo'llanilishiga bog'liqligini ta'kidlab o'tilgan fikrlarni ham uchratish mumkin³.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda esa, kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini aniqlashda yunksion va komponent modellarga tayangan holda ish olib boriladi. Ya'ni, gaplarni komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish o'zaro bir-birini to'lg'azadi. SHu bois ushbu bobdan ko'zlangan maqsad kesim o'rnida kelgan elementlarning differensial sintaktik va semantik belgilarini aniqlash, ularning tipologiyasini hamda har ikkala tilda kesim o'rnida kelgan sintaktik elementlardagi izomorflik va allomorflik ko'rinishlarini topish, ularning ifoda variantlarini izohlash, hamda u yoki bu sintaktik aloqalar yordamida qanday differensial sintaktik va semantik belgilar bilan birika olishini yoritishdan iboratdir. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda shunisi muhimki, bir xil yunksion va komponent modellarga tushgan gaplarda turli xil differensial sintaktik va semantik belgilar mujassamlashgan holatni ko'rishimiz mumkin.

Umuman, gapdagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish har bir elementning u yoki bu o'rinda sintaktik qatlamdagi semantik maydonini aniqlashda

¹ Cook G. Discourse and Literature. - Oxford: Oxford University Press, 1994. - P. 242.

² Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. - Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др. - Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака. - М.: Прогресс, 1988. - С.53.

³ Gruber J.S. Lexical Structures in Syntax and Semantics. - Amsterdam, 1996. - P. 48-49.

namoyon bo‘ladi. Masalan, muayyan element har ikkala tilda turlicha komponentli gaplarda turli o‘rinlarda kelib, har xil semantik maydonga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi *a pen* va o‘zbek tilidagi *ruchka* so‘zini olsak, quyidagi gaplarda yuqorida aytilgan fikrning guvohi bo‘lishimiz mumkin:

- | | |
|--------------------------------------|---|
| 1. <i>I buy <u>a pen</u>.</i> | <i>Men <u>ruchka</u> sotib olaman.</i> |
| 2. <i><u>A pen</u> writes.</i> | <i><u>Ruchka</u> yozadi.</i> |
| 3. <i>I write <u>with a pen</u>.</i> | <i>Men <u>ruchka bilan</u> yozaman.</i> |

Agarda *pen*, *ruchka* so‘zlarining leksik ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, bu so‘zlar predmetni ifoda etadi, ammo sintaktik qatlamda har xil semantik maydonga ega bo‘ladi. Birinchi gapda *a pen*, *ruchka* so‘zlari kategorial belgilardan substansiallikka ega bo‘lib, nokategorial belgilardan esa ob’ektlik, ikkinchi gapda agentivlik (harakat ijrochisi) belgisini oladi. Uchinchi gapda esa substansiallik belgisidan tashqari *with a pen*, *ruchka bilan* so‘zlari instrumentallik (vosita) belgisiga ega bo‘ladi. Bu gaplarning sintaksem modellari quyidagichadir:

- | | |
|----------------------------------|---------------------------------|
| Ingliz tilida: | O‘zbek tilida: |
| (1) SbAg . PrAc . <u>SbOb</u> ; | (1) SbAg . <u>SbOb</u> . PrAc; |
| (2) <u>SbAg</u> . PrAc; | (2) <u>SbAg</u> . PrAc; |
| (3) SbAg . PrAc . <u>SbIns</u> . | (3) SbAg . <u>SbIns</u> . PrAc. |

Ko‘rinib turibdiki, *pen*, *ruchka* so‘zlari sintaktik qatlamda har ikkala tildagi gaplarda kategorial belgilardan substansiallikka ega bo‘lsa, nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilardan turli o‘rinlarda turlicha, ya’ni ob’ektlik, agentivlik, instrumentallik belgilarini mujassamlashtiradi. Ammo, bu ishda faqat kesim o‘rnida kelgan sintaktik birliklar har ikkala tildagi gaplar misolida tadqiq etiladi.

Sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, asosan, uchta kategorial belgi ya’ni protsessuallik, substansiallik va kvalifikativlik¹ asosida olib boriladi. Ular asosida esa sintaktik birliklarning bir qancha nokategorial belgilari aniqlanadi. SHu bois ishda yuqorida aytib o‘tilgan kategorial belgilar 1) NP2 o‘rnida kelgan protsessual

¹ Процессуаллик-иш ҳаракатни ёки ҳолатни ифодаловчи синтактик бирлик; Субстанциаллик-шахсни, предметни от, олмош кабилар ёрдамида ифодаланиши; Квалификативлик-предмет ёки шахнинг белгисини, сонини, иш-ҳаракат бажарилиш тарзини ифодалайди. Қаранг: Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. – Л.: Наука, 1980. – С. 155.

sintaksemalar tipologiyasi; 2) NP2 o'rnida kelgan substansial sintaksemalar tipologiyasi; 3) NP2 o'rnida kelgan kvalifikativ sintaksemalar tipologiyasi kabi guruhlarga ajratilgan holda tavsiflanadi.

2.2. NP2 o'rnida kelgan kvalifikativ sintaksemalar tipologiyasi

Gapdagi sintaktik elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda yana bir kategorial belgilardan biri kvalifikativlik ham muhim o'rin egallaydi. Bu belgi asosan predmet yoki shaxsning sifatini, sonini yoki holatini ifodalashi mumkin. Kategorial belgilardan kvalifikativlik protsessuallik va substansiallik belgilaridan farqli o'laroq, sintaktik elementning u yoki bu belgisini yoki xususiyatini anglatishi bilan farqlanadi. Har uchala kategorial belgilarning ifodalanishi turlichadir, ya'ni turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. SHuning uchun ham substansiallikni so'z turkumlaridan ot bilan aralashtirmaslik kerak, chunki substansiallik ot, olmosh, sifat, son, hatto ravish orqali ham ifodalanishi mumkin. Protsessuallik esa J.Maruzo ta'kidlaganidek, harakat yoki holatni anglatadi¹ hamda fe'ning shaxsli va shaxssiz shakllari, ayrim hollarda bosha so'z turkumlari yordamida ham ifodalanadi. Demak, kvalifikativlik ham turlicha so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin hamda nokategorial belgilari bilan substansiallik hamda protsessuallikdan farq qiladi. Faktik materiallarni tahlil qilganimizda kvalifikativlik kategorial belgisi asosida nokategorial belgilardan kvalitativ, kvalitativ-komparativ, kvalitativ-negativ, kvalifikativ-stativ, kvalifikativ-temporal, stativ-negativ, kvantitativ, kvantitativ-elektiv kabi differensial sintaktik-semantik belgilarni uchratishimiz mumkin.

¹ Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: Лит. на иностр. языке, 1960. – С. 136.

2.3. NP2 o'rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksemalar tipologiyasi

Stativlik xususiyatini ingliz tili materialida morfoloqik qatlamda olib qarasak, holat kategoriyasi sifatida alohida so'z turkumi deb qarash anchagina qiyinchiliklarga olib keladi. YA'ni u chuqurroq tahlil qilinsa, ikki xil fikrga duch kelamiz. Ayrim tilshunoslar *a-* prefiksi bilan berilgan *asleep, alike, afraid* so'zlari ham holat kategoriyasini ifodalaydi deb hisoblashsalar¹, boshqalari esa so'zlarni turkumlarga ajratib tasniflashda morfoloqik tamoyildan tashqari, semantik va sintaktik belgilarni inobatga olib, *a* - old qo'shimcha bo'lmagan so'zlar, ya'ni *glad, sorry, ill* kabilar ham holatni ifodalovchi so'zlarga sinonim deb ko'rsatadilar², O.E.Filimonovanning fikricha, gaplarda predmet yoki shaxsning holati nafaqat holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar yoki sifat orqali, balki *bog'lama fe'l+predlog+ot* shaklidagi *to be in fear, to be in pain, to be in trouble* kabi birikmalar orqali ham ifodalanishi mumkin³. Quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

1. *She presently fell asleep (SMP,177).*
2. *I was silent (SST, 40)*
3. *They grew angry and bitter (SMP,67).*
4. *I've always been afraid of the rain (EHF,117).*
5. *His face remained impressive (SMP,63).*
6. *We'll both get drunk (EHF,117).*

Keltirilgan gaplardagi *fell asleep, was silent, grew angry and bitter, have been afraid of, remained impressive, get drunk* elementlari NP2 (yadro predikativlik II) o'rnida kelib, yadro predikativ aloqa asosida NP1 o'rnida kelgan *She, I, They, face, We* elementlarining holatini ifodalab kelmoqda. Mazkur

¹ Ilyish B.A. The structure of Modern English. –Л.: Просвещение, 1971. – С. 74-75.; Винокурова Л.П. Грамматика английского языка. – Л.: Учпедгиз, 1954, – С. 244.

² Жигадло В.Н. и др. Современный английский язык (теоритический курс грамматики). – М.: Лит. на иностр. языке, 1956. – С. 174.

³ Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Л.: ЛОИЯ, 1978. – С. 8.

elementlarning stativ differensial sintaktik-semantik belgisini *to feel* yoki *to be in a state of* elementlarini qo‘shimcha qilish transformatsiyasi orqali aniqlashimiz mumkin: (1) *She presently fell asleep → She ... was in a state of sleeping*; (2) *I was silent → I was in a state of silence*; (3) *They grew angry and bitter → They were in a state of anger*; (4) *I've always been afraid of the rain → I have felt fear ... → I was in a state of fear...*; (5) *His face remained impressive → His face was impressive → His face was in a state of impression*; (6) *We'll both get drunk We'll ... be drunk → We'll feel drunk → We'll be in a state of drunken*.

Ingliz tilida gapda NP2 o‘rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksema NP1 o‘rnida kelgan substansial sintaksemaga yadro predikativ aloqa bazasida holat belgisini yuklaydi. Subordinativ aloqa bazasida ular quyidagi sintaksemalar bilan bog‘lanishi mumkin:

1. Sotsiativ sintaksema bilan:

On a sudden he appered with her (SMP, 211).

2. Obyekt-aktiv sintaksema bilan:

You will be too busy to come here tomorrow (SMP, 197).

3. Kvalitativ sintaksema bilan:

They'll be awfully glad to see you (EHF, 86).

4. Substansial ob’ekt sintaksema bilan:

I was short of money (EHF, 81).

5. Lokativ sintaksema bilan:

You are very comfortable here (EHF, 73).

6. Lokativ-allativ sintaksema bilan:

He was again late to his office (BUG, 61).

7. Harakatning bajarilishi usuli yoki tarz sintaksemasi bilan:

The priest was young and blushed easily (EHF, 6).

8. Temporal sintaksema bilan:

Rinaldi was quiet now (EHF, 124).

Ingliz tilida kvalifikativ-stativ sintaksema quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1) *to be+adjective: We were very hungry (EHF, 74);*

2) *to be+stative: They were all asleep (EHF, 73);*

3) *to get+adjective : I get furious if they touch you (EHF,75);*

4) *shall/will be+adjective: We 'll be hungry (EHF,135);*

5) *to grow+adjective: She flushed and grew pale (SMP,90);*

6) *to remain+adjective: He remained sympathetic, pleasant and amiable (SMP,213);*

7) *to seem+adjective: His dark eyes seemed ... large (SMP, 50);*

8) *to feel into+substance: We fell into silence (CST,151);*

9) *to look+adjective: She didn't look happy (EHF,107);*

10) *to look+Participle II: You are looking drawn (CST,131);*

11) *to be+Participle II: The soil is sacred (EHF, 129).*

F.G.Isxakovning qayd etishicha, gaplarda NP2 o'rnida kelgan kvalifikativ-stativ sintaksemalar o'zbek tilida ham asosan fe'l bilan ifodalanadi¹. Lekin holat ma'nosi boshqa so'z turkumlari orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: 1) *Erkak orzularga to'la (TMK, 321);* 2) *Eshik lang ochiq (PQYU, 40);* 3) *Qish chillasi avjida (PQYU, 119);* 4) *Miyasi joyida (JAB, 26);* 5) *Men sendan o'la-o'lguncha minnatdorman (SHOZ, 226).*

¹ Исхаков Ф.Г. Имена действия и состояния в современном узбекском языке (формы на – и(ш), -мок, -(у)в): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Самарканд: СамГУ, 1960. – С. 12.

O'zbek tilida kvalifikativ-stativ sintaksema gapda NP2 o'rnida kelganda yadro predikativ aloqa asosida faqat NP1 o'rnidagi holat belgisi yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog'lanadi. Kvalifikativ-stativ sintaksema subordinativ aloqa asosida esa quyidagi sintaksemalar bilan bog'lanishi mumkin:

1. Kvalitativ-komparativ sintaksema bilan:

Xashaklar ko'rpaday yastangan (JAB, 45).

2. Temporal-limitativ sintaksema bilan:

Men sendan o'la-o'lguncha minnatdorman (SHOZ, 226).

3. Kvalitativ sintaksema bilan:

Eshik lang ochiq (PQYU, 40).

Ma'lum bo'lishicha, ingliz va o'zbek tillarida predikativ aloqa bazasida holat yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog'lanish holati bir-biriga o'xshaydi, ammo subordinativ aloqa asosida kvalifikativ-stativ sintaksema ingliz tilida turli tuman sintaksemalar bilan bog'lansa, o'zbek tilida esa bu holat anchagina chegaralanganligi ko'zga tashlanadi.

2.4. NP2 o'rnida kelgan kvalitativ sintaksemalar tipologiyasi

Yuqorida qayd etilganidek, NP2 o'rnida kelgan kvalitativlikni ifodalovchi belgi predmet yoki shaxsning sifatini bildiradi.

1) The whites of the eyes were yellow (EHF, 99);

2) You are too particular (BUG, 91);

3) The razor is very sharp (EHF, 66);

4) I'll be noisy (EHF, 121).

Misollardagi *were yellow; are particular; is sharp; shall be noisy* soʻzlari yadro predikativlik I oʻrnida kelgan *The whites; You; The razor; I* elementlarining sifatini koʻrsatadi. Kvalitativ sintaksemaning leksik bazasi, asosan rangni, hajmni, predmetning xususiyatini hamda uning subʼektiv bahosini ifodalovchi sifatlardan iboratdir. Kvalitativ sintaksemaning boshqalaridan farqi shundaki, ularni almashtirish transformatsiyasi natijasida kvalitativ-komparativ sintaksemaga aylantirish mumkin¹. Demak, berilgan gaplardagi NP2 oʻrnida kelgan elementlar almashtirish transformatsiyasiga tushadi:

(1) *The whites of the eyes were yellow* → *The whites of the eyes were yellower*; (2) *You are ... particular* → *You are more particular*; (3) *The razor is very sharp* → *The razor is ... sharper*; (4) *They were ... red* → *They were redder*; (5) *I'll be noisy* → *I'll be more noisy*.

Bundan tashqari, kvalitativlik belgisining stativlikdan yana bir farqi shundaki, ularni transformatsiya nominalizatsiya yordamida atributiv sintagmaga aylantirish mumkin:

(1) *The whites of the eyes were yellow* → *yellow eyes*; (2) *You are too particular* → *a particular person*; (3) *The razor is very sharp* → *a sharp razor*; (4) *They were very red* → *red material (person)*; (5) *I'll be noisy* → *a noisy person*.

Kvalitativ sintaksema oʻzbek tilida ham ingliz tili kabi almashtirish nominalizatsiyalash transformatsiyasiga mos keladi. Masalan:

(1) *Falak zangori (TMO, 19)* → *Zangori falak*; (2) *Momoqiz yaxshi (TMO, 24)* → *yaxshi Momoqiz*; (3) *Qoroʻzanning sholisi aʻlo navli (JAB, 53)* → *aʻlo navli sholi*; (4) *Dehqon bagʻri qon (TMO, 124)* → *bagʻri qon dehqon*; (5) *Siz bilan biz uchun ham bu umr gʻanimat (PQYU, 110)* → *gʻanimat umr*.

¹ Дорошенко В.А. Квалитативные элементы в предложениях современного английского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: ЛОИЯ, 1976. – С. 18.; Чен М.А. Элементы more, less и парадигматические ряды компаративных и градуальных синтаксем: Дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1979. – С. 19.

Gapda NP2 oʻrnida kelgan kvalitatif sintaksema har ikkala tilda yadro predikativ aloqa bazasida substansial sintaksema, yaʼni sifat belgisi yuklatilgan element bilan bogʻlanadi. → Ingliz tilida ular subordinativ aloqa bazasida quyidagi sintaksemalar bilan bogʻlanadi:

1. Komparativ sintaksema bilan:

His helmet was too big for him (EHF, 165);

He was taller than me (EHF, 112).

2. Substansial obʼyekt sintaksema bilan:

He was sure of himself (EHF, 125);

He was partial to one and strict to the other (BUG, 61).

3. Temporal sintaksema bilan:

They will soon be dirty again (BUG, 46);

You were fine until now (EHF, 109).

4. Protsessual obʼyekt-aktiv sintaksema bilan:

You are very good to say so (EHF, 116).

5. Komitativ sintaksema bilan:

She was light-headed with triumph (SMP, 65).

6. Lokativ sintaksema bilan:

The shadow of my cup was blue on the white cloth (CPT, 98);

Something was wrong somewhere (EHF, 128).

Kvalitatif sintaksemalar oʻzbek tilida subordinativ aloqa bazasida quyidagi sintaksemalar bilan bogʻlanishi mumkin:

1. Temporal sintaksema bilan:

Bobir Mirzo hali yoshlar (PQYU, 102).

2. Ob'yekt sintaksema bilan:

Ular bir imoga mahtal (PQYU, 36).

3. Lokativ sintaksema bilan:

Bu erlarning momoqaldirig'i yomon (JAB, 44)

4. Kvantitativ sintaksema bilan:

Bu cho'ponning o'zi va otasi mendan ming tanga qarzdor (SAD, 31).

NP2 o'rnida kelgan kvalitativ sintaksemaning subordinativ aloqa asosida temporallik, ob'yekt, lokativ sintaksemalar bilan birikishi ikkala tilda ham bir xildir. Biroq ingliz tilida kvalitativ sintaksema aytib o'tilganlardan tashqari, komparativ, ob'yekt aktiv, komitativ sintaksemalar bilan, o'zbek tilida esa kvantitativ sintaksema bilan birikishi mumkin.

Ingliz tilida kvalitativ sintaksemaning variantlari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) *are+adj: We are all gentler now* (EHF, 126);
- 2) *will/shall be + adj: Next year will be worse* (EHF, 115);
- 3) *am+adj: I am about the youngest in the club* (JGE, 31);
- 4) *was+adj: I was sleepy* (EHF, 91);
- 5) *look+adj: You don't look very strong* (SMP, 133);
- 6) *have been+adj: I haven't been happy for a long time* (EHF, 84).

O'zbek tilida esa ularning quyidagi variantlari mavjud:

- 1) sifat: *Kombayn darg'alari hushyor va mag'rur* (JAB, 50);

Rais bo'lib ish buyurish oson (TMD, 63);

- 2) sifat+-da : *El-yurtning ko'ngli nozik-da* (TMO, 7);

Tirikchilik ham har xil-da (TMO, 423);

3) sifat+-lar: *Bobir Mirzo hali yoshlar (PQYU, 102);*

4) sifat+bo'lmq: *Beginning o'zlari uchun ham yaxshi bo'lur (PQYU, 107).*

Ma'lum bo'lishicha, ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan kesim kvalitatif sintaksema bilan ifodalanganda gap qaysi zamonda berilishidan qat'iy nazar kesim *bog'lama fe'l+sifat* orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa o'tgan yoki kelasi zamon shakllarida kvalitatiflik ifodalanganda ko'makchilar *sifat+to'liqsiz fe'l* bilan birikib kelishi mumkin. Qolgan hollarda yaxlit sifat orqali beriladi.

2.5. NP2 o'rnida kelgan kvantitativ sintaksemalar tipologiyasi

Kvantitativlik differensial sintaktik semantik belgi bo'lib, kvalifikativlikning nokategorial belgilaridan biri hisoblanadi. U gapdagi NP1 o'rnida kelgan elementga son vazifasini yuklaydi:

1) *He was eleven and Cheese-Face was thirteen (JLM,145) – U paytda Martin o'n birda, Moy Qovoq esa o'n uchda edi (JLM, 141);*

2) *She was nearly forty (SMP,50); Davlat narxi esa bor-yo'g'i o'n ming (TMD, 432);*

3) *Ettore was twenty three (EHF,90); Bir jo'ra atlas ikki yuz so'm ekan (TMD, 95).*

Gaplarda NP2 o'rnida kelgan elementlar, ya'ni (1) *was eleven, was thirteen, o'n birda, o'n uchda edi*; (2) *was forty, o'n ming*; (3) *was twenty three, ikki yuz so'm ekan* so'zlari NP1 o'rnida kelgan *He, Cheese-Face, U, Moy Qovoq, She, narxi, Ettore, atlas* kabi elementlarni son jihatdan izohlab, ifodalangan kvantitativlik belgisini ularga yuklaydi.

Faktik materiallarga qaraganimizda gapda NP2 o'rnida kelgan element kvantitativlikdan tashqari elektivlik (tanlov) belgisini ham o'z ichiga olishi mumkin: 4) *She was one of them (JLM,25) – U o'shalardan biri*

5) *She is one in a shadow (SMP,214) - U mingdan biri*

Ma'lumki, ingliz tilida kvantitativlik differensial sintaktik – semantik belgisi *to be* fe'lining shaxsli shakli va sonning birikishi bilan ifodalansa, o'zbek tilida esa hozirgi zamonda yaxlit son bilan, o'tgan yoki kelasi zamonlarda *son+ko 'makchi* yoki *to 'liqsiz fe'l* yordamida ifodalanadi.

Ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan stativ sintaksemaning ifodalanishi shunday leksik-semantik guruh fe'llari bilan beriladiki, ular gapdagi subyektning holatini ifodalaydi¹.

Beloxi was fainted (GQA, 128). Kalamushlar kabob bo 'ldi (AMK,62).

Ushbu gaplardagi *was fainted, kabob bo 'ldi* birikmalari NP1 o'rnidagi ot bilan ifodalangan *Beloxi, Kalamushlar* kabi unsurlarning holatini ifodalaydi. SHuning uchun ham *was fainted, kabob bo 'ldi* unsurlari stativ sintaksemalar deb hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillarida stativ va aktiv sintaksemalarni farqlashda ko'pgina qiyinchiliklar mavjud bo'lib, mazkur masala maxsus izlanishni talab qiladi. Ingliz tili materialida asosida M.M. Boldyreva²ning hisoblashicha, *to be+participle II* gaplarda NP2 o'rnida kelganida ikki ma'noni, ya'ni harakat va holatni ifodalashi mumkin. Uning fikricha, harakat ma'nosini ifodalaganda *to be+participle II* subordinativ aloqa bazasida to'ldiruvchi bilan birikib, harakat bajaruvchi shaxs *by* predlogi bilan birikib keladi. Qachonki, *to be+participle II* holatni ifodalasa, u holda harakat bajaruvchi shaxsni *by* predlogi bilan gap tuzilishiga kiritib bo'lmaydi².

O.A.Pismennaya stativ va aktiv sintaksemalarni bir-biridan farqlab, "NP2 o'rnida kelgan protsessual-stativ sintaksema subordinativ aloqa bazasida faqat ravishli unsurlar bilan bog'lanishi mumkin. Uning asosiy farqi protsessual-aktiv

¹ Генюшяне Э.Ш. Соотношения пассива и статива в литовском языке // Сб. Лингвистические исследования. – М., 1973. – С. 50.; Плоткин В.Я. Грамматические системы в английском языке. – Кишинев: Штиинца, 1975. – С. 104.; Райхель Г.М. К вопросу о грамматическом значении сочетания *to be + причастие II* в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 1954. – С. 11.

² Болдырова М.М. Сочетания *to be+Participle II* со значением результитивного состояния в современном английском языке // Учен.зап. МГПИ т. 59. – М., 1971. – С. 35.

sintaksema kabi ob'ekt unsurlari bilan bog'lanmaydi"¹ deb yozadi. Lekin, ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan protsessual-aktiv sintaksema subordinativ aloqa bazasida ravishli unsurlar bilan bog'lanishi mumkin.

Masalan: *Riley Anderson goes there* (EHF,59).

Stativ va aktiv sintaksemalarni bir-biridan farqlashda quyidagilar asos bo'la oladi: stativ sintaksema subordinativ aloqa asosida lokativ sintaksema bilan bog'lanishi mumkin, protsessual-aktiv sintaksema esa lokativ-allativ hamda lokativ-ablativ sintaksemalar bilan bog'lanadi².

N.E.Voskresenskayaning talqin etishicha, protsessual-stativ sintaksema gaplarda NP2 o'rnida kelganda ularga daraja ifodalovchi ravishlardan *intently*, *rapidly* kabi unsurlarni qo'shib bo'lmaydi³.

Masalan: *I happened to tell him* → *I happened intently to tell him*.

O.E.Filimonovanning fikricha, stativlikni ifodalovchi unsurlar turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin. Faqat bu holat ularning gapda qaysi o'rinda kelishiga bog'liq⁴.

Umuman olganda, ingliz tilida protsessual-stativ sintaksema gapda NP2 o'rnida kelganda *to be* fe'lining shaxsli shakli va *participle II* bilan ifodalanadi hamda undagi o'tgan zamon sifatdash shakli asosan o'timsiz fe'llar bilan beriladi. Bunday gaplar tuzilmasiga *by* predlogi va harakat bajaruvchi sub'ektni qo'shimcha qilish transformatsiyasi yordamida kiritib bo'lmaydi. Bu masala o'zbek tilida ham maxsus izlanishni talab qiladi. Faktik materiallarning isbotlashicha, o'zbek tilida ham protsessual stativ sintaksema turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan: a) fe'ning majhul nisbati yordamida: *Birida qurt, birida bolasi kasalga chalindi* (AMK, 57); b) ravishdashning – (i) *b+qo'ymoq* yordamchi fe'li orqali: *Payl uni*

¹ Письменная О.А. Двухядерные безглагольные предложения в современном английском языке: Дисс. канд. филол. наук. - Киев: КГПИ, 1975. – С.104.

² Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. – Л.: Наука, 1976. – С. 106.

³ Воскресенская Н.Е. Предложения с ядерным дважды предцируемым компонентом в современном английском языке: Дис. канд. филол. наук. – Л., 1976. – С. 122.

⁴ Филимонова О.Е. Стативная синтаксема в английском предложении: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л.: ЛОИЯ, 1978. – С. 11-12.

osiltirib qo'ydi (GYUA, 181); v) ravishdoshning – (a) *b+qo'ymoq yordamchi fe'li* yordamida: *Jo narsalarni joylab qo'ydi* (GYUA, 124).

Yuqorida keltirilgan misollarning guvohlik berishicha, ingliz tilida NP2 o'rnida kelgan protsessual stativ sintaksema transformatsiya depassivizatsiyaga tushmaydi. Ushbu sintaksema yadro predikativ aloqa asosida NP1 o'rnida kelgan jonli otlar yoki kishilik olmoshlari bilan ifodalangan unsurlarning holatini ifodalaydi. O'zbek tilida esa NP2 o'rnida kelgan unsurlar transformatsiya passivizatsiyaga tushadi:

Payl uni osiltirib qo'ydi → *U Payl tomonidan osiltirib qo'yildi;*

Jo narsalarni joylab qo'ydi → *Narsalar Jo tomonidan joylab qo'yildi.*

Ko'rinishicha, *Payl*, *Jo* unsurlari harakat bajaruvchi, ya'ni substansial agentiv sintaksema bo'lsa, *uni*, *narsalarni* unsurlariga esa *osiltirib qo'ydi*, *joylab qo'ydi* komponentlariga nisbatan holat ma'nosi yuklatilgan. Shunday qilib, o'zbek tilida protsessual-stativ sintaksema yadro predikativ aloqa asosida substansial-agentiv sintaksema bilan birikib kelsa, subordinativ aloqa bazasida holat ma'nosi yuklatilgan ob'ekt sintaksema bilan bog'lanishi mumkin. Ingliz tili esa bundan mustasno. O'zbek tilida ham shunday fe'llar borki, (*hayajonlanmoq*, *to'lqinlanmoq*, *iztirob chekmoq*, *bezovta bo'lmoq*, *qayg'urmoq*, *hasrat (g'am) chekmoq*, *ma'yuslanmoq*, *ranjimoq*, *o'pka qilmoq*, *xursand bo'lmoq*, *sevinmoq*, *quvonmoq*, *g'azablanmoq*, *sog'inmoq*, *jahli chiqmoq*, *achinmoq*) ular gapda NP2 o'rnida kelganda protsessual stativ sintaksemi ifodalaydi, hamda ingliz tilidagi kabi obyekt sintaksema bilan bog'lanmaydi.

Mazkur sintaksema ingliz tilida *to be* fe'lining shaxsli shakli yordamida ifodalanadi. Masalan:

The Mitty Crowd is in there (PAP, 443). June has been here (GFS, 81).

Ushbu gaplardagi NP2 o'rnida kelgan *is*, *has been* unsurlari na harakatni, na holatni ifodalaydi. A.N. Smirnitskiyning fikricha, *is* fe'lini kesim deb atashga hech qanday asos yo'q, chunki uning leksik ma'nosi sezilarli emas va noaniq. Uning

ta'kidlashicha bu fe'l xuddi "*He is a doctor*" gapidagidek yordamchi so'z vazifasini bajarmoqda. "*He is here*" gapida kesim tuzilishiga ko'ra murakkablikka ega, u bog'lama fe'l hamda o'rinni ifodalovchi komponentdan tashkil topgan. Lekin gapda semantik jihatdan ikkinchi komponent *here* kesim bo'ladi, chunki u predikatlik vazifasini bajarmoqda. Kesimning bunday turini A.N.Smirnitskiy hol kesim deb atashni taklif qiladi¹.

O'zbek tili materialida esa, bunday holat boshqacharoq ko'rinishga ega:

Hammasi shu erda (MRS, 82);

Men institutdaman (MRS, 106);

U maktabda (GYUA, 29).

Yuqorida keltirilgan gaplardagi *shu erda, institutdaman, maktabda* unsurlari kesim deb belgilanadi. A.G'ulomov, M.Asqarovalarning ta'kidlashlaricha, kesim o'rnida kelgan ot qaratqich va tushum kelishiklaridan tashqari predikativlikni ifodalab, kesim vazifasini bajaradi. SHunday qilib, predikativlik affikslarini oluvchi otlar gap tuzilmasida kesim vazifasida keladi². Lekin bu gaplardagi *shu erda, institutdaman, maktabda* kabi so'zlar kesim deb tan olinishiga ishonish qiyin. CHunki, bu gaplar o'tgan yoki kelasi zamon shakllariga transformatsiya qilinganda boshqacha hosila paydo bo'ladi:

Hamma shu erda → Hamma shu erda edi;

Hamma shu erda → Hammasi shu erda bo'ladi.

Agar gaplarning *there, here, shu erda, institutdaman, maktabda* kabi unsurlari bevosita ishtirokchilarga ajratilganda ularning *is, has been, edi, edim, bo'laman, bo'ladi* kabi fe'l shakllari bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini aniqlash mumkin. Bu albatta, ularning subordinativ aloqa yordamida o'zaro bog'langanligini ko'rsatadi. Buni isbotlash uchun qo'shimcha qilish

¹ Смирницкий А.Н. Синтаксис английского языка. – М.: Лит.на иностр.яз., 1957. – С. 114-115.

² Ғулумов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 87.

transformatsiyasi yordamida *work*, o'qiyman so'zlarini *The Mitty Crowd is in there*, va *Men institutdaman* gaplari tarkibiga kiritsak, *The Mitty Crowd works*, *Men institutda o'qiyman* gaplari hosil bo'ladi va *there*, *institutda* unsurlari oldingi gaplardagidek lokativ sintaksema bo'lib qolaveradi. Lekin *works*, o'qiyman unsurlari sintaktik va semantik jihatdan olinganda protsessuallikni ifodalaydi. Agar ularda aktiv harakat ifodalangan bo'lsa u holda *is*, *edi*, *edim*, *bo'laman*, *bo'ladi* unsurlari ekzistensiallikni (mavjudlikni) anglatadi. SHuning uchun ham *The Mitty Crowd*, *June*, *hammasi*, *men*, *u* unsurlari substansial ekzestensial sintaksema hisoblanadi. Sintaksemaning *is*, *has been*, *edi*, *edim*, *bo'laman*, *bo'ladi* unsurlari ekzistensiallikning variantlari sanalanadi. O'zbek tilida keltirilgan *men institutdaman*, *hammasi shu erda*, *u maktabda* kabi gaplarda ekzistensiallik grammatik jihatdan eksplitsit tarzda ifodalanmagan, ya'ni ular nol variantga teng yoki ekzistensiallik shaxs qo'shimchalariga yuklatilgan. Bu holat tarjimada ham ko'zga yaqqol tashlanadi:

The grocery was below (JLM, 44).

Do 'kon pastda edi (JLM, 32).

2.6. Gapda kesim (NP2) o'rnida kelgan aktiv sintaksemalar tipologiyasi

Ma'lumki aktiv so'zi lotincha "activ" so'zidan olingan bo'lib, «harakat» ma'nosini ifodalaydi. Bu sintaksema ingliz tilida NP2 o'rnida quyidagicha beriladi:

- 1) *I went out to meet her (EHF, 102);*
- 2) *A bat flew into the room (EHF, 73).*

Gaplardagi *went out*, *flew* elementlari fe'llar bilan ifodalangan bo'lib, ular prosessual-aktivlik ma'nosini ifoda etadi. Aktivlik belgisi ushbu sintaktik birliklarning NP2 o'rnida kelib, yadro predikativ aloqa asosida agentiv (harakat bajaruvchi) sintaksema bilan birikib kelishi orqali aniqlanadi va isbotlanadi. Bu sintaksemalar gaplarda o'timli va o'timsiz fe'llar bilan ifodalanib, fe'lning aniq nisbatida beriladi va harakatni ifodalaydi. Bu harakat subyekt tomonidan bajariladi. NP1 (yadro predikativlik I) o'rnida kelgan elementlar, ya'ni *I*, *a bat* so'zlari

agentiv sintaksemaning variantlari hisoblanadi. Prosessual-aktiv sintaksema (PrAc) NP2 o'rnida kelganda o'timli, o'timsiz, terminativ (tugallangan) hamda noterminativ (tugallanmagan) fe'llarning shaxsli shaklida ifodalanishi mumkin:

3) *She started for the door (EHF, 102);*

4) *The wickets gloomed in the sun (TH,33).*

Bundan tashqari, aktiv sintaksema fe'lining analitik shakli yoki frazeologik birliklar yordamida ham ifodalanadi:

5) *We had planned to go to Pallanza (EHF,99);*

6) *All our boarders have been using it for no end of time (VG,91);*

7) *He gave her a look (SMP,35);*

8) *Dave Nelson was in command (CFS,328).*

Oxirgi ikkita gapda prosessual-aktiv sintaksemalar transformasiya-verbalizasiya (fe'lga aylantirish) yordamida aniqlanadi:

(7) *He gave her a look → He looked at her; (8) Dave Nelson was in command → Dave Nelson commanded (qiyoslang: to give smb. a look → to look at smb; be in command of regiment → to command regiment).*

Yadro predikativ aloqa bazasida prosessual-aktiv sintaksema quyidagi sintaksemalar bilan birikishi mumkin:

1. Agentiv sintaksema bilan:

You are flattering me, sir (VG,105).

2. Agentiv-negativ sintaksema bilan:

Nothing is ailing me (CFS,175).

3. Substansial elektiv (tanlash)-agentiv sintaksema bilan:

Two of them were crying (EHF,133).

Sodda yoyiq gaplarda prosessual-aktiv sintaksema subordinativ aloqa asosida quyidagi sintaksemalar bilan birikishi mumkin:

1. Substansial obyekt sintaksema bilan:

They will certainly tax it (VG,92);

I expect big things (CST,52).

2. Lokativ (o'rin) sintaksema bilan :

I went out as usual to school (CST,31);

Piani sat at the table very sleepy (EHF,136).

3. Substansial obyekt-agentiv sintaksema bilan:

I want you to remember (CST,52);

I will ask Valentini to come (EHF,72).

4. Temporal (payt) sintaksema bilan:

I am going away at midnight (EHF,105);

We'll know pretty soon (EHF,157).

5. Obyekt-aktiv sintaksema bilan:

I loved to take her hair down (EHF,82);

She hated to spend money (SMP,23).

6. Sosiativ (birgalik) sintaksema bilan:

I had a drink with a captain (EHF,17).

7. Obyekt-elektiv sintaksema bilan:

I have missed some of them (VG,14).

8. Stativ (holat) sintaksema bilan:

He was lying asleep (EHF,156).

9. Komparativ (qiyoslash) sintaksema bilan:

You are like a married man (EHF,117).

10. Obyekt-kvalitativ (sifatni o'z zimmasiga olgan) sintaksema bilan:

The boy made the lights yellow (EHF,105).

11. Obyekt-stativ (holatni o'z zimmasiga olgan) sintaksema bilan:

They made me feel civilized (EHF,175).

12. Harakatning bajarilish tarzi yoki usuli sintaksemasi bilan:

She looked lovely in the byed (EHF,135);

The flakes were coming heavy (EHF,131).

O'zbek tilida ham gaplarda NP2 o'rnida kelgan elementlar o'timli hamda o'timsiz fe'llar yordamida ifodalanadi:

1) Bo'ri polvon kalishini yechdi (TMO,12).

2) Bobir o'z onasini esladi (PQYu, 113).

3) *Men endi ayolimiz sochidan tortqiladim (TMD, 108).*

Berilgan gaplarda *yechdi, esladi, tortqiladim* elementlaridagi aktivlik gaplardagi NP1 o'rnida kelgan *Bo'ri polvon, Bobir, men* elementlari bilan yadro predikativ aloqa yordamida birikib, ular agentivlik (harakat bajaruvchi) sintaksema belgisini aniqlashi orqali aks ettiriladi. Fe'llarning shaxsli shakli bilan ifodalangan elementlar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. Fe'ning sof shaxsli shakli bilan:

... usta Shamsi o'z ixtiyori bilan Toshkandni tanladi (ADK, 7).

2. Fe'ning majhul nisbati yordamida:

Toboq-toboq palov suzildi (TMO, 8).

3. Fe'ning buyruq shakli bilan:

Sen o'zing bir o'ylab ko'rgin (PQYu, 107).

4. Fe'ling analitik shakli bilan:

Umarshayx Mirzo qattiq o'ylamoqda edi (PQYu, 24);

... manovi ikki polvon davraga gaplashib chiqibdi ekan (TMO, 29).

5. Fe'ning ravishdosh shakli+yurmoq ko'makchisi bilan:

Aytmaganimda institutda tinchgina ishlab yuruvdi (TMG, 64).

6. Ravishdosh+olmoq ko'makchisi bilan:

Men yoshingizni bilib oldim (TMG, 7);

... dalada manaman deb turgan yangilik esa kandidatlik diplomini o'zi chaqirib oladi (TMG, 26).

7. Ravishdosh+turmoq ko'makchisi bilan:

Nozima undan ko'z uzmay qarab turdi (TMG, 38).

8. Ravishdosh+kelmoq ko'makchisi bilan:

Rixsiyev qishloqqa ko'chib keldi (TMO, 129).

9. Ravishdosh+yubormoq ko'makchisi bilan:

Qayoqdandir to'qay bulbuli sayrab yubordi (JAB, 46).

O'zbek tilida ham yadro predikativ aloqa asosida NP2 o'rnida kelgan aktiv sintaksema agentiv sintaksema bilan birikadi:

Xizmatkorlar qo'r bo'lib o'tirib, sabzi to'g'radi (TMO, 8).

O'zbek tiliga xos bo'lgan agentiv sintaksemani ifodalovchi element gaplarda eksplisit tarzda berilmay qolishi juda ko'p uchraydi:

Ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz (OFD, 4).

Bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da (TMO, 334).

Mazkur gaplarda agentiv sintaksemani tiklash transformasiyasi yordamida aniqlash mumkin: *Ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz* → *Biz ertalab to'qqizda birinchi dovonda uchrashamiz*; *Bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da* → *Men bug'doyingizni ichkaridan topib olaman-da*.

Bunga o'xshash holatlar asosan, dialogik nutqning javob replikalarida uchraydi hamda egasi ifodalanmagan to'liqsiz gaplar deb ataladi¹.

O'zbek tilida aktiv sintaksema sodda yoyiq gaplarda subordinativ aloqa bazasida quyidagi sintaksemalar bilan birikishi mumkin:

1. Substansial-obyekt sintaksema bilan:

Bolalar bu sonni belgilab oldi (TMO, 9);

O'g'il nonni uzib oldi (TMO, 309).

2. Lokativ sintaksema bilan:

Uloqlar toshdan-toshga sakrab chopdi (TMO, 19);

O'tgan yili u ko'chki tagida qolib o'ldi (NNYu, 6).

3. Stativ sintaksema bilan:

U o'z uychasida tong havosidan mast bo'lib sayradi (TMO, 337).

4. Komitativ sintaksema bilan:

Bo'ri polvon endi orzu bilan ovundi (TMO, 74).

5. Lokativ-ablativ (chiqish kelishigi) sintaksema bilan:

Bo'ri polvon damini olish uchun davradan chiqdi (TMO, 55).

6. Lokativ allativ (jo'nalish kelishigi) sintaksema bilan:

Polvonlar o'zlarini orqaga tashladi (TMO, 81).

7. Harakatning bajarilish tarzi yoki usuli sintaksemasi bilan:

Xizmatchilar cho'g'ni tepkilab o'chirdi (TMO, 92).

¹ Усмонов У.У. Неполные предложения в английской диалогической речи: Дисс. ... канд. филол. наук. - Киев: КГУ, 1983. - С. 38-40.

8. Sosiativ (birgalik) sintaksema bilan:

Polvonlar qo'l berib ko'rishdi (TMO, 81).

9. Final (maqsad) sintaksema bilan:

U qo'ldan chiqargan tahrirga yon bosish uchun chog'landi (ADK, 9).

Keltirilgan sintaksemalarni aniqlashda o'ziga xos eksprement uslubidan foydalanib, ya'ni transformasiya passivizasiya usuli orqali isbotlash mumkin.

Har ikkala tildagi substansial obyekt sintaksemani ajratishda, gaplardagi aktiv sintaksemalar o'timli fe'llar bilan ifodalanganligi sababli transformasiya passivizasiyaga tushadi:

They will certainly tax it → It will be certainly taxed by them;

O'g'il nonni uzib oldi → Non o'g'il tomonidan uzib olindi.

Misollardan ko'rinadiki, ingliz tilida substansial obyekt sintaksema aktivlik sintaksemaga nisbatan gap strukturasida postpozisiya holatida kelsa, o'zbek tilida prepozisiya holatida keladi.

Lokativ sintaksema turlaridan ablativ ham, allativ ham har ikkala tilda almashtirish transformasiyasiga tushadi va lokativ ablativ hamda allativ sintaksemalarni ifodalagan *to school, at the table, davradan, orqaga* kabilarni *here, there, shu yerda, shu yerga, shu yerdan* elementlari bilan almashtirish mumkin:

I went to school → I went there;

Piani sat at the table ... → Piani sat here (there);

Bo'ri polvon ... darvozadan chiqdi → Bo'ri polvon ... u yerdan chiqdi;

U ko'chki tagida qolib o'ldi → U shu yerda qolib o'ldi.

Sosiativlik sintaksemasini aniqlashda esa qo'shimcha qilish transformasiyasidan foydalanish mumkin: *I had a drink with a captain → I had a drink along with a captain; yoki I had a drink with a captain → We had a drink together;* *Polvonlar qo'l berib ko'rishdi* *Polvonlar bir-biri bilan qo'l berib ko'rishdi* yoki *Polvonlar qo'l berib ko'rishdi* *Polvonlar qo'llari bilan ko'rishdi.*

Ingliz tilining o'zbek tilidan farqi shundaki, ingliz tilida obyektli hamda subyektli infinitiv qurilmalarning mavjudligi tufayli NP2 o'rnida kelgan aktivlik sintaksema obyekt-agentiv, kvalitatif, stativ sintaksemalar bilan subordinativ aloqada bo'lishi mumkin, ammo o'zbek tilida bunday hollar uchramaydi.

Ikkinchi bobga xulosa

Yuqorida qayd etilganlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, har ikkala tilda gaplarda NP2 o'rnida kelgan elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, ularning gapda tutgan o'rniga ko'ra, boshqa elementlar bilan bo'lgan sintaktik aloqalarini, hamda semantik maydonini aniqlash imkonini beradi. Bunday tahlil avvalo, sintaksemalarning uchta kategorial sintaktik-semantik belgilari (substansiallik, kvalifikativlik, protsessuallik) asosida olib boriladi. Mazkur bobda berib o'tilgan ushbu kategorial belgilarning bir-biridan farqlanishi, ular bazasida namoyon bo'ladigan nokategorial belgilar, yadro predikativ va subordinativ aloqalar yordamida boshqa nokategorial differensial sintaktik-semantik belgilar bilan bog'lanishi hamda ularning ifodalanish variantlari e'tiborga olinib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi gaplarda NP2 o'rnida kelgan elementlarga xos kategorial belgilardan kvalifikativlik differensial sintaktik-semantik belgisi asosida kvalitatif, kvalitatif-komparativ, kvalitatif-negativ, stativ, temporal, stativ-negativ, kvantitativ, kvantitativ-elektiv sintaksemalar aniqlandi.

2. Ingliz tilida kvalifikativ-stativ sintaksema *to be+adjective*, *to be+stative*, *to get+adjective*, *shall/will be+adjective*, *to grow+adjective*, *to remain+adjective*, *to seem+adjective*, *to look+adjective*, *to be+Participle II* shakllari bilan ifodalanadi. O'zbek tilida bunday holatni ifodalovchi maxsus morfologik ko'rsatkichlar yo'q, ular asosan, sifat bilan ifodalanishi mumkinligi kuzatiladi. Kvalifikativ-stativ sintaksema har ikkala tilda ham yadro predikativ aloqa bazasida substansial sintaksemaga holat belgisini yuklaydi, subordinativ aloqa bazasida esa ingliz tilida sotsiativ, ob'ekt-aktiv, kvalitatif, substansial ob'ekt, lokativ, lokativ-allativ, harakatning bajarilish tarzi yoki usuli, hamda temporal sintaksemalar bilan

bogʻlanishi oʻzbek tilida esa kvalitatif-komparativ, temporal-limitativ va kvalitatif sintaksemalar bilan bogʻlanishi aniqlandi.

X U L O S A

Ma'lumki, lingvistik tipologiya mustaqil nazariy fan sifatida til tizimining barcha qatlamlarini qiyosiy o'rganish imkoniga ega ekanligi tilshunoslarning ko'pchiligi tomonidan e'tirof etilgan. Gapdagi elementlarning sintaktik sathdagi semantikasini qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimida qiyosiy o'rganish borasida maxsus tadqiqotlar shular jumlasidandir. Shuning uchun ham mazkur bitiruv malakaviy ishda ingliz va o'zbek tillarida kesim o'rnida kelgan elementlarni so'nggi yillarda keng rivojlanayotgan sistem-struktur sintaksis tamoyillari asosida tahlil qilishga hamda o'rganilayotgan birliklarning qiyosiy-tipologik xususiyatlarini aniqlashga asosiy e'tibor qaratildi. Kesim hodisasini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilishda sintaktik tipologiyada gap tarkibidagi kesim vazifasidagi elementlar asosida sintaksemalarga ajratib tahlil qilish usulidan foydalanildi. Mazkur lingvistik usul har ikkala tilda kesimni tahlil qilishda o'ziga xos yondashuv hisoblanadi. Jumladan, unda sintaktik birliklarning differensial-sintaktik va semantik belgilarini aniqlab, ularni qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish, ularning gapda ifodalanish variantlarini qiyoslash hamda aniqlangan sintaksemalarning yadro predikativ va subordinativ aloqalar asosida qanday sintaksemalar bilan birikishini oydinlashtirishdan iborat.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishda bosh bo'laklar muammosiga to'xtalib, tilshunoslarning fikrlariga qisman e'tibor qilingan holda, qiyosiy tipologik jihatdan biz yondashayotgan lingvistik usullar asosida gapdagi kesim vazifasidagi elementlarni tahlil qilish o'ziga xos ahamiyatga egaligi.

2. An'anaviy grammatikalarda kesimni tasniflash borasida har ikkala tilda ham bir to'xtamga kelinmaganligini yoki u bahsga loyiq masala ekanligini hisobga olib, kesimni tasniflashga nisbatan yangicha yondashuvni afzal ko'rdik.

3. Gapda NP2 o'rnida kelgan sintaktik birliklar semantik jihatdan sintaksemalarga ajratib tahlil qilinganda, ular asosan prosessuallik, kvalifikativlik va substansiallik kabi kategorial belgilarga ajratilib o'rganiladi. Ushbu kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar yordamida ularning har biri yana bir necha

nokategorial turlarga bo'linadi. Jumladan, kategorial belgilardan prosessuallik asosida nokategorial belgilardan aktiv aktiv-negativ, aktiv-modal, aktiv-modal negativ kabi sintaksemalar aniqlandi.

Yadro predikativ aloqa asosida aktiv sintaksema agentiv (harakat bajaruvchi), agentiv-negativ, elektiv (tanlov) sintaksemalar bilan bog'lansa, subordinativ aloqa asosida obyekt, lokativ (o'rin), obyekt-agentiv, temporal (payt), obyekt-aktiv, sosiativ (birgalik), obyekt-elektiv, stativ (holatni ifodalovchi), komparativ (o'xshatish, qiyoslash), kvalitatif, obyekt-stativ (holatni o'z zimmasiga olgan) va tarz sintaksemalari bilan bog'lanishi ma'lum bo'ldi. Substansiallik sintaksemasi asosida identifikasiyalashtiruvchi sintaksema yadro predikativ aloqa yordamida identifikasiyalashgan sintaksema bilan bog'lansa, subordinativ aloqa asosida kvalitatif, obyekt-kvantativ, komparativ, possessiv, komitativ kabi sintaksemalar bilan bog'lanishi mumkinligi aniqlandi.

Ushbu kichik tadqiqot natijalaridan gapdagi har qanday o'rinda kelgan sintaktik birliklarni yaxlit bir til materiali asosida yoki qiyosiy tipologik jihatdan qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimini tahlil qilishda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 64 б.
2. Ilyish B.A. The structure of Modern English. – Л.: Просвещение, 1971. - С. 207-208.
3. Becker Th. Back-formation, Cross-formation and "Bracketing paradoxes" in Paradigmatic Morphology//Yearbook of Morphology. - London: Arnold, 2003.-P. 1-25.
4. Martinet A. La linguistique synchronique. –Paris, 1968.
5. Tomic O.M. Generative syntax in theory and practice. — Skopje: "Kiril i Mefodij" University, 1998. - P.119-120.
6. Wells R.S. Immediate Constituents // Language. -- Baltimore, 1989. - № 23. - № 2. - P. 88.
7. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - Л.: Просвещение, 1979. - С.189-190
8. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. - М.: Высшая школа, 1975. –156 с.
9. Большой англо-русский словарь. / Под руков. Гальперина И.Р. – М.: СЭ, 1972. I-II т. – С. 394, 417, 422.
10. Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. – М.: Наука, 1968. – 326 с.
11. Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. – М.: Наука, 1975. – 560 с.
12. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык (теоретический курс грамматики). - М.: Лит. на иностр. языке, 1956. - 350 с.
13. Золотова Г.А. К вопросу о способах выражения членов предложения // Русский язык в школе. -М., 1958.-№ 1. – С.23-28.

14. Турниёзова К. Гапнинг учинчи даражали бўлаклари ва «монема» тушунчаси ҳақида баъзи мулоҳазалар // Хорижий филология. № 2, 2007. Б.81-85.
15. Каушанская В.Л., Ковнер Р.Л. и др. Грамматика английского языка. – Ленинград: Просвещение, 1973. – 319 с.
16. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л.: Наука, 1972. – 216 с.
17. Качалова К.Н., Израилович Е.Е. Практическая грамматика английского языка. – Бишкек: Туркестан, 2004. – 672 с.
18. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 228 б.
19. Мельничук А. С. Понятие системы языка и структуры языка в свете диалектического материализма// Вопросы языкознания. М., 1970. - № 1. - С. 21.
20. Мухин А. М. Морфологические и синтаксические категории // Исследования по языкознанию: К 70-летию члена -корреспондента РАН А. В. Бондарко / Отв. ред. С. А. Шубик. – Санкт-Петербург: Изд-во С. - Петербургского ун-та, 2001. – С. 51-55.
21. Мухин А.М. Лингвистический анализ: Теоретические и методологические проблемы. – Ленинград: Наука, 1976. – 282 с.
22. Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). – Л.: Наука, 1964. – 232 с.
23. Мухин А.М. Морфологические категории и функциональный синтаксис - Ленинград: Наука, 2002. – С. 15-24.
24. Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. - Л.: Наука, 1980. - 304 с.
25. Мухин А.М. Структура предложений и их моделей. - Л.: Наука, 1968. - 230 с.
26. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1988. - №5. - Б. 22-26.
27. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек

- тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 296 б.
28. Петунина И.А. Английский субъектный результатов (статив) и интранзитивный перфект // Сб. Структура и значения предложения. – М.: АН России, 1982. – С. 177.
29. Письменная О.А. Двухядерные безглагольные предложения в современном английском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Киев, КГПИ, 1975. – 172 с.
30. Попова З.Д. Может ли обойтись синтаксис без учения о членах предложения // Вопросы языкознания, № 5, 1984. – С. 69.
31. Рословец Я.И. О второстепенных членах предложения и их синтаксических функциях // Вопросы языкознания. № 3, 1976. – С. 74.
32. Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке // Автореф. докт. дисс. – Ташкент, 2001.
33. Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984. – 98 с.
34. Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984. – С. 70-118.
35. Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. -Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др. - Вступ. статья и общ. ред. В.Г. Гака. - М.: Прогресс, 1988. - 656 с.
36. Трофимова Э. А. Приёмы выражения взаимосвязей реплик диалогической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Москва, 1964. – 26 с.
37. Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили структурал синтаксисига кириш. Самарқанд: СамДУ, 1989. – 76 б.
38. Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. - Самарқанд: СамДЧТИ, 1998. – 48 б.
39. Турниёзов Н.Қ. Хорижий мамлакатлар лингвистик назариялари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 58 б.
40. Усмонов У.У. Неполные предложения в английской диалогической речи: Дисс. ... канд. филол. наук. - Киев: КГУ, 1983. – 177 с.

41. Усмонов У.У. Теория синтаксического анализа нулевых элементов в структуре неполных предложений. – Самарканд: СамГУ, 1990.
42. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент : Фан, 1976. — 560 б.
43. Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. — 192 б.
44. Храковский В.С. Концепции членов предложения в русском языкознании XIX века // Грамматические концепции в языкознании XIX века. - Л., 1985. – С.124.
45. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. -Ташкент: Фан, 2007. – 126 с.
46. <http://syntagma.hl.ru/nau/article46.htm>.
47. [www/muhin-am.livejournal.com](http://www.muhiin-am.livejournal.com).
48. [www/syntagma.hl.ru/nau/article46.htm](http://www.syntagma.hl.ru/nau/article46.htm).

Qisqartmalar ro'yxati

1. Абдуллахонов Ж. Борса келмас. – Тошкент, 1978. -310 б. – ЖАБ.
2. Асад Дилмурод. Кўчки (қисса ва ҳикоялар). – Тошкент, 1991. – 396 б. – АДК.
3. Асқад Мухтор. Кумуш тола // Шарқ юлдузи – Тошкент, - № 11. 1987. – Б. 13-66. – АМК.
4. Зверева Е.Н., Эбер И.Г. Brush Up Your Grammar.(Сборник коротких рассказов и диалогов на англ-м языке). – Л., 1965. – 122 с. – ВУГ.
5. Лондон Ж. Мартин Иден. – Тошкент, 1968. – 431 б. – ЖЛМ.
6. Норқобилов Н. Юзма-юз (қиссалар). – Тошкент, 1993. – 176 б. – ННЮ.
7. Ориф Фармон. Кўнгил кўчаси (ҳажвий ҳикоялар ва қиссалар). Мирзараҳимов М. Куйган кечалар. – Тошкент, 1990. – 240 б. – ОФК.
8. Садриддин Айний. Дохунда. – Тошкент: Ўздавнашр, 1956. – 164 б. – САД.
9. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом (қиссалар). – Тошкент, 1994. – 464 б. – ТКО.
10. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент, 1994. – 270 б. – ТМД.
11. Тоҳир Малик. Мурдалар гапирмайдилар. – Тошкент, 1999. – 496 б. – ТМГ.

12. Шухрат. Олтин зангламас. – Тошкент, 1995. – 400 б. – ШОЗ.
13. Эрнест Хемингуэй. Алвидо, қурол. – Тошкент, 1986. – 378 б. – ЭХА.
14. Қодиров П. Юлдузли тунлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 463 б. – ПКЮ.
15. Carter D. Fatherless Sons. - Moscow: Foreign Language Publishing House, 1959. – 606 p. – CFS.
16. Hemingway E. A Farewell to Arms. - Leningrad, 1971. – 263с. – EHF.
17. London J. Martin Eden. – Moscow, 1960. – 438p. – JLM.
18. Shaw. B. Pygmalion. – Moscow: Higher School, – 1972. – 140 p. – SP.
19. Snow Ch. P. Time of Hope. – Moscow, 1964. – 388 p. – CST.
20. Somerset Maugham W. The Painted Veil. – Moscow, 1981. – 247p. – SMP.
21. Theoder Dreiser. Jenny Gerhart. – Moscow: Progress Publishers, 1965. – 358 p. – TDJ.

ISHDA FOYDALANILGAN BELGILAR IZOHI

Komponent modellar belgilari

NP₁ – Yadro predikativlik 1;

NP₂ - Yadro predikativlik 2;

$\bar{N}DP_1$ – Tobe aloqadagi yadro bo'lmagan predikativlik 1;

$\bar{N}P_2$ - Yadro bo'lmagan predikativlik 2;

NP₁P₁- Yadro bo'lgan ikki karra predikativlik 1;

$\bar{N}D$ - Yadro bo'lmagan tobe komponent;

Sintaksem model belgilari

Abl – ablativ (chiqish kelishigi);

Ac – aktiv (sof harakat);

Ag – agentiv (harakat bajaruvchi);

All – allativ (jo'nalish kelishigi);

Cls – klassifikativ;

Cmp – komparativ (qiyoslash);

Cmt – komitativ (birgalikda, qo'shilgan holda);

Cnt – kontinuativ (davomli);

Df – definit (aniqlik);

Dr – direktiv (yo'naltirilgan);

El – elektiv (tanlov);

Exs – ekzistensial (borlik, mavjudlik);

Gr – gradual (daraja);

Id – identifikatsiyalashtiruvchi;

Id – identifikatsiyalashgan;

Ind – indefinit (noaniqlik);

Ins – instrumental (vosita);

Int – interrogativ (so'roq);

Lc – lokativ (o'rin-joy);

Md – modal;

Mn – harakatning bajarilish tarzi yoki usuli;

Ng – negativ (inkor);
Ob – ob'yekt;
Pr – protsessual (harakat yoki holat);
Prc – perseptiv (his qilish va ko'rish);
Pss – pozessiv (egalik);
Qlf – kvalifikativ;
Qlt – kvalitativ (sifat);
Qlt – kvalitativlik;
Qun – kvantitativ (son);
Qun – kvantitativlik;
Sb – substansial (ot yoki shaxs ma'nosi);
Sp – superlativ (orttirma daraja);
St – stativ (holat);
St – stativlik egasi;
Tm – temporal (payt);